

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 135 (1196), 2024-yil 7-iyul, yakshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA O‘ZARO MANFAATLI VA KENG QAMROVLI HAMKORLIK YO‘LGA QO‘YILGANI ALOHIDA TA’KIDLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-iyul kuni Shusha shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining “Transport, o‘zaro bog‘liqlik va iqlim harakati orqali barqaror kelajakni bunyod etish” shiori ostidagi norasmiy sammitida ishtirok etdi.



Ozərbayjon Respublikası Prezidenti İlham Aliyev rəisliyində o‘tgan tadbirda Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya vitse-prezidenti Javdat Yilmaz, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev va TDT Oqsoqollar kengashi raisi Binali Yildirim ham qatnashdi.

Kun tartibiga muvofiq, tashkilot doirasidagi ko‘p qirrali hamkorlikning holati va istiqbollari yuzasidan fikr almashildi, amaliy sheriklikning raiislik qilayotgani uchun alohida tashakkur aytmoqchiman.

Hurmatli Prezident Qosim-Jomart Kemelevich Toqayev Janobi Oliylariga Qozog‘istonning Tashkilotimizga samarali rahbarligida amalga oshirilayotgan ulkan barcha muammolarni tizimli hal etish uchun Turkiy davlatlar tashkilotining Inson kapitalini rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish bo‘yicha tashabbusni ilgari suramiz va uni yurtimizda joylashtirishga tayyormiz.

poytaxtlaridan biri bo‘lgan Shusha shahrida o‘tkazilayotganida chuqur ma‘no mujassamligini ta’kidlab, Prezident İlham Aliyev rahbarligida Qorabog‘da olib borilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini yuksak baholadi.

O‘tgan qisqa davrda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida 30 dan ortiq muhim yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli va keng qamrovli hamkorlik yo‘lga qo‘yilgani alohida ta’kidlandi.

— Ushbu sammitimiz global xavf va xatarlar ortib, o‘zaro ishonch inqirozi tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda o‘tmoqda. Bunday murakkab vaziyatda azaliy qardoshlik ruhidan kuch olayotgan aloqalarimizni sifat

jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni, umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishni davrning o‘zi taqozo etmoqda, — dedi O‘zbekiston Prezidenti.

Turkiy davlatlar o‘rtasida ko‘p tomonlama va uzoq muddatli hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston yetakchisi qator ustuvor masalalarga e’tibor qaratdi.

Tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasida savdo hajmi barqaror o‘sayotgani va o‘tgan yilda 27 foizga oshgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bunday yuqori o‘shish sur’atlari joriy yilda ham kuzatilmoqda.

— Mamlakatlarimiz bugungi kunda dunyoning asosiy bozorlariga chiqish hamda

Buyuk ipak yo‘lini yangi tarixiy sharoitda qayta tiklash uchun qattiq bel bog‘lagan, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Hamkorlikning huquqiy asoslari mustahkamlangani, raqamli tizimlar ishga tushirilgani natijasida Transkaspiy xalqaro transport yo‘lagi orqali yuk tashish hajmi muttasil o‘sib borayotgani ta’kidlandi.

Biznes uchun eng ma’qul tariflarni joriy etish ushbu yo‘lakning raqobatdoshligi va jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, “Yagona oyna” tizimini yo‘lga qo‘yish, bojxona-chegara o‘tkazish punktlarining uzluksiz ishlashini ta’minlash muhimligi qayd etildi.

O‘zbekiston Prezidenti yaqinda Toshkentda tashkil etilgan Turkiy davlatlar logistika markazlari va yuk tashuvchilari alyansini TDTning transport sohasidagi kun tartibini shakllantirish va ustuvor vazifalarini amalga oshirishga keng jalb etish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatib o‘tdi.

Tashkilot doirasida Temir yo‘l ma’muriyatlari kengashini tuzish va uning direksiyasini Toshkent shahrida joylashtirish tashabbusi ilgari surildi.

Joriy yil kuzda bo‘ladigan navbatdagi sammitga qadar xalqaro koridorlar imkoniyatlaridan yanada unumli foydalanish va avtotashuvlarni to‘liq raqamlashtirish,

“yashil” yo‘laklar yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha savdo va transport vazirlariga topshiriq berish taklif etildi.

Mamlakatimiz yetakchisi iqlim o‘zgarishiga qarshi birgalikda kurashish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

Mavjud muammolarni tizimli hal etish uchun Turkiy ekologiya kengashini tuzish va uning bosh qarorgohini ekologik ofatdan eng ko‘p zarar ko‘rgan hudud — Orolbo‘yidagi yirik shahar Nukusda joylashtirish taklif qilindi.

Davomi 2-beda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING SAMMITIDAGI NUTQI

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Tadbirdi yuksak darajada tashkil etayotgani uchun Ozərbayjon Respublikası Prezidenti, hurmatli İlhom Haydarovich Aliyev Janobi Oliylari nomiga aytilgan samimiy minnatdorlik so‘zlariga to‘liq qo‘shilaman.

Hurmatli Prezident Qosim-Jomart Kemelevich Toqayev Janobi Oliylariga Qozog‘istonning Tashkilotimizga samarali rahbarligida amalga oshirilayotgan ulkan barcha muammolarni tizimli hal etish uchun Turkiy davlatlar tashkilotining Inson kapitalini rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish bo‘yicha tashabbusni ilgari suramiz va uni yurtimizda joylashtirishga tayyormiz.

Sizlar bilan turkiy dunyoning madaniyat poytaxtlaridan biri bo‘lgan Shusha shahrida ko‘rishib turganimizda chuqur ma‘no mujassam. Go‘zal Qorabog‘ning durdonasi hisoblangan bu muqaddas shahar Ozarbayjon xalqining so‘nmas jasorati, g‘alabaniy yorqin timsolidir.

XX asrning buyuk siyosat va jamoat arbobi, mustaqil Ozarbayjon davlatining asoschisi, muhtaram Haydar Aliyev ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, “Shushasiz — Qorabog‘, Qorabog‘siz Ozarbayjon bo‘lmaydi”.

Darhaqiqat, ushbu betakror shahar, nafaqat Ozarbayjon, balki barcha turkiy xalqlar qalbidagi alohida ehtirom va faxr-iftixor tuyg‘ularini uyg‘otib kelmoqda. Bugungi kunda tarixiy adolat qaror topgan va yana Ozarbayjon bag‘riga qaytgan Qorabog‘da hurmatli İlhom Haydarovich rahbarligida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlariga, me’moriy obidalar va madaniy yodgorliklarni qayta tiklash borasidagi mislsiz jonbozlikka kecha bevosita guvoh bo‘ldik. Siz, aziz qardoshimizning bunday egzu ishlarigiz yaqin do‘stlar sifatida barchamizga albatta cheksiz quvonch va g‘urur

bag‘ishlaydi. Birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz va alohida e’tiborimiz bilan ushbu bebaho shahar timsolida butun Qorabog‘ kelgusida abadiy do‘stligimizning chinakam ramziga aylanishiga ishonaman.

Hurmatli sammit ishtirokchilari! Biz bundan besh yil muqaddam aynan Ozarbayjon zaminida Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo bo‘lib kirgan edik. O‘tgan qisqa davrda 30 dan ortiq muhim yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli va keng qamrovli hamkorlikni yo‘lga qo‘ydik.

Ushbu sammitimiz global xavf va xatarlar ortib, o‘zaro ishonch inqirozi tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda o‘tmoqda. Bunday murakkab vaziyatda azaliy qardoshlik ruhidan kuch olayotgan aloqalarimizni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishni, umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Shu ma’noda, bugungi yig‘ilishimiz “Transport, o‘zaro bog‘liqlik va iqlim harakati orqali barqaror kelajakni bunyod etish” shiori ostida o‘tayotgani dolzarb ahamiyatga ega.

Quyidagi ustuvor masalalarga diqqatingizni qaratmoqchiman.

Savdo va transport yo‘llarini rivojlantirish.

Tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasida savdo hajmi barqaror o‘smoqda.

O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra, umumiy o‘zaro tovar aylanmamiz hajmi 27 foizga oshdi. Bunday yuqori o‘shish sur’atlari joriy yilda ham kuzatilmoqda. Uni bardavom saqlab qolishdan manfaatdormiz.

Mamlakatlarimiz bugungi kunda dunyoning asosiy bozorlariga chiqish hamda Buyuk ipak yo‘lini yangi tarixiy sharoitda qayta tiklash uchun qattiq bel bog‘lagan.

Albatta, so‘nggi yillarda Tashkilot doirasida bu sohada hamkorlikning huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda, raqamli tizimlar ishga tushirilmoqda. Natijada Transkaspiy xalqaro transport yo‘lagi orqali yuk tashish hajmi muttasil o‘sib bormoqda. Biznes uchun eng ma’qul tariflarni joriy etish ushbu yo‘lakning raqobatdoshligi va jozibadorligini keskin oshirishi shubhasiz.

Biz “Yagona oyna” tizimi yo‘lga qo‘yilishidan, bojxona-chegara o‘tkazish punktlarining uzluksiz ishlashi ta’minlanishidan manfaatdormiz.

O‘tgan hafta Toshkentda tashkil etilgan Turkiy davlatlar logistika markazlari va yuk tashuvchilari alyansini Tashkilotimizning transport sohasidagi kun tartibini shakllantirish va ustuvor vazifalarini amalga oshirishda keng jalb etish maqsadga muvofiqdir.

Tashkilotimiz doirasida Temir yo‘l ma’muriyatlari kengashini tuzish va uning direksiyasini Toshkent shahrida joylashtirish haqidagi taklifimizni ma’qullaysizlar, deb ishonaman.

Topshiriq bersak, navbatdagi sammitimizga qadar savdo va transport vazirlarimiz xalqaro koridorlar imkoniyatlaridan yanada unumli foydalanish va avtotashuvlarni to‘liq raqamlashtirish, “yashil” yo‘laklar yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni birgalikda ishlab chiqadi.

Iqlim o‘zgarishlariga qarshi birgalikda kurashish.

Tashkilotimiz hududi iqlim o‘zgarishidan eng ko‘p zarar ko‘rayotgan mintaqalardan biri, desak, bu ayni haqiqatdir.

Mavjud muammolarni tizimli hal etish uchun bizning tashabbusimiz asosida vazirlar

darajasida Turkiy ekologiya kengashini tuzish taklifini ma’qullaysizlar, deb ishonaman. Mazkur tuzilma qarorgohini ekologik ofatdan chin dildan tilakdoshmiz. Biz mazkur nufuzli ajumanda faol ishtirok etishga va bu borada Ozarbayjonga har tomonlama ko‘maklashishga tayyormiz.

Joriy yilning noyabr oyida Bokuda o‘tkaziladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining XXIX Iqlim sammiti (COP — 29) barcha mamlakatlarimiz uchun ulkan tarixiy voqea bo‘ladi.

Iqlim o‘zgarishlari bo‘yicha dunyo yetakchilari sammiti muvaffaqiyatli o‘tishiga chin dildan tilakdoshmiz. Biz mazkur nufuzli ajumanda faol ishtirok etishga va bu borada Ozarbayjonga har tomonlama ko‘maklashishga tayyormiz.

Muqobil energetika.

Biz 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini keskin oshirish va energiya balansida ularning ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganmiz. Sheriklarimiz bilan birga yiliga 2 gigavatt quvvatdagi yangi shamol va quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirmoqdamiz. Ushbu loyihalar davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Qo‘shni Qirg‘izistonda gidroelektro-stansiyalarini Qozog‘iston bilan birgalikda qurish ishlarini ham boshlayapmiz.

Muqobil energetika sohasidagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida “Yashil

energetika sari turkiy harakat” konsepsiyasini qabul qilishning vaqti-soati keldi, deb o‘ylayman.

Turkiy dunyo xalqlari o‘z taraqqiyotining turli davrlarida umumbashariy sivilizatsiya rivojiga mislsiz hissa qo‘shganlar.

Nomlarini jahon ahli yaxshi biladigan ulug‘ alloma va ulamolarimiz ikkita buyuk Renessansga asos solishgan. Bu azal-azaldan xalqlarimiz hayotida inson kapitali naqadar yuqori bo‘lganidan darak beradi.

Biz zamonaviy “bilimlar iqtisodiyoti”ni qurish, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar, blok-cheyn, bulutli, kvant hisoblash texnologiyalari, robototexnika, “to‘rtinchi sanoat” kadrlerini tayyorlash sohalarida hamkorlikni kuchaytirishdan manfaatdormiz. Buning uchun Turkiy davlatlar tashkilotining Inson kapitalini rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish bo‘yicha tashabbusni ilgari suramiz va uni yurtimizda joylashtirishga tayyormiz.

Tashkilot shafeligida aniq fanlar bo‘yicha Yoshlar turkiy olimpiadasi va Butunjahon turkshunoslar kongressini tashkil etishni hamda ularni kelgusi yili O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif etamiz.

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

To‘qqiz oydan buyon G‘azo sektorida kechayotgan qonli urush oqibatlari bizni chuqur qayg‘u va iztirobga solmoqda. To‘qnashuvlar 40 mingga yaqin aholi, ayniqsa, ayollar va bolalar hayotiga zomin bo‘lganini hech bir sabab va bahona bilan oqlab bo‘lmaydi.

Biz zo‘ravonliklarni zudlik bilan

to‘xtatishga, tinchlik jarayonlarini tezroq boshlashga chaqiramiz.

Mustaqil va ozod Falastin davlatining tashkil etilishi Yaqin Sharqda strategik barqarorlik va tinchlikni ta’minlashning eng asosiy shartidir.

Yana bir muhim masala.

Ming afsuski, jahonning boshqa mintaqalarida urush va mojaroalar kuchayib borayotgani oqibatida yon qo‘shnimiz bo‘lgan va ko‘p millionli turkiy xalqlar istiqomat qilayotgan Afg‘onistondagi vaziyat xalqaro hamjamiyat e’tiboridan chetda qolib ketmoqda.

O‘zbekiston afg‘on xalqiga zarur yordam ko‘rsatishni bundan buyon ham davom ettiradi.

Afg‘onistonning xorijdagi “muzlatilgan” moliyaviy aktivlarini qaytarish mamlakatdagi ijtimoiy vaziyatni yumshatishga xizmat qilishiga ishonamiz.

Yangi voqealik sharoitida Afg‘oniston masalasi bo‘yicha Tashkilotimiz a’zolarining umumiy va yakdli yondashuvlarini ishlab chiqish masalalari tashqi ishlar vazirlarimiz muloqotlarida asosiy muhokama mavzusi bo‘lishi lozim.

Hurmatli do‘stlar!

Bugun ilgari surilgan barcha taklif va tashabbuslar “Turkiy nigoh — 2040” konsepsiyasi hamda Samarqand shahrida qabul qilingan Turkiy davlatlar tashkilotining besh yillik strategiyasi mazmuniga mos va uyg‘undir.

Anjuman kun tartibiga kiritilgan Qorabog‘ deklaratsiyasining imzolanishini to‘liq qo‘llab-quvvatlaymiz.

E’tiboringiz uchun rahmat.

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI DOIRASIDA OʻZARO MANFAATLI VA KENG QAMROVLI HAMKORLIK YOʻLGA QOʻYILGANI ALOHIDA TAʼKIDLANDI

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbari turkiy dunyo bugungi kunda iqlim boʻyicha xalqaro hamkorlikda oʻzining baland ovozigga ega boʻlib borayotganini taʼkidladi.

Shu maʼnoda, joriy yilning noyabr oyida Bokuda oʻtkaziladigan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim sammiti (COP — 29) TDT mamlakatlari uchun ulkan tarixiy voqea boʻlishiga ishonch bildirildi.

Muqobil energiya manbalarini rivojlantirish ahamiyati haqida soʻz yuritarkan, davlatimiz rahbari Oʻzbekiston 2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarining energetika balansidagi ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganini maʼlum qildi.

Xususan, xorijiy sheriklar bilan birga yiliga 2 gigavatt quvvatdagi yangi shamol va quyosh elektr stansiyalari ishga tushirilmoqda.

— Qoʻshni Qirgʻizistonda gidroelek-trostansiyalarini Qozogʻiston bilan birgalikda qurish ishlarini ham boshlayapmiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu boradagi hamkorlikni kengaytirish maqsadida “Yashil energetika sari turkiy harakat” konsepsiyasini qabul qilish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari turkiy dunyo umumbashariy sivilizatsiya rivojiga mislsiz hissa qoʻshganini taʼkidladi.

— Nomlarini jahon ahli yaxshi biladigan ulugʻ alloma va ulamolimiz ikkita buyuk Rennessansga asos solishgan. Bu azal-azaldan xalqlarimiz hayotida inson kapitali naqadar yuqori boʻlganidan darak beradi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu munosabat bilan zamonaviy “bilimlar iqtisodiyoti”ni qurish, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalar,

blokcheyn, bulutli, kvant hisoblash texnologiyalari, robototexnika, “toʻrtinchi sanoat” kadrlarini tayyorlash sohalarida hamkorlikni kuchaytirish zarurligi koʻrsatib oʻtildi.

Buning uchun Turkiy davlatlar tashkilotining Inson kapitalini rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi.

Shuningdek, Prezidentimiz tashkilot shafeligida aniq fanlar boʻyicha Yoshlar turkiy olimpiadasi va Butunjahon turkshunoslar kongressini kelgusi yili Oʻzbekistonda oʻtkazishni taklif etdi.

Davlatimiz rahbari yigʻilganlar eʼtiborini Gʻazo sektorida murakkab vaziyat yuzaga kelib, qonli urush 40 mingga yaqin aholi, ayniqsa, ayollar va bolalar hayotiga zomin boʻlganiga qarattir. Tomonlarni zoʻravonliklarni zudlik bilan toʻxtatishga, tinchlik jarayonlarini tezroq boshlashga chaqirdi.

Mustaqil va ozod Falastin davlatining tashkil etilishi Yaqin Sharqda strategik barqarorlik va tinchlikni taʼminlashning eng asosiy sharti ekanini qayd etildi.

Mamlakatimiz yetakchisi koʻp millionli turkiy xalqlar istiqomat qilayotgan Afgʻonistondagi vaziyatga toʻxtalar ekan, ushbu masala boʻyicha tashkilot aʼzolarining umumiy va yakdil yondashuvlarini ishlab chiqish muhimligini alohida taʼkidladi.

— Oʻzbekiston afgʻon xalqiga zarur yordam koʻrsatishni bundan buyon ham davom ettiradi. Afgʻonistonning xorijdagi “muzlatilgan” moliyaviy aktivlarini qaytarish mamlakatdagi ijtimoiy vaziyatni yumshatishga xizmat qilishiga ishonamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Sammit yakunida Qorabogʻ deklaratsiyasi hamda hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha qator kelishuvlar qabul qilindi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyev shu kuni Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti doirasida Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban bilan uchrashuv oʻtkazdi.

Oʻzbekiston — Vengriya koʻp qirrali munosabatlarning dolzarb masalalari koʻrib chiqildi.

Mamlakatlarimiz oʻrtasidagi strategik sheriklik va amaliy hamkorlik izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Barcha darajalarda faol muloqotlar davom etmoqda. May oyida Toshkent shahrida Hukumatlararo komissiya yigʻilishi va biznes-forumi samarali oʻtkazildi.

Keyingi yillarda tovar ayirboshlash hajmi qariyb ikki barobar oshdi, qoʻshma loyiha va korxonalar soni koʻpaymoqda, 30-iyundan Toshkent va Budapesht oʻrtasida toʻgʻridan-toʻgʻri aviaqatnovlar tiklandi.

Sanoat, farmatsevtika, qishloq xoʻjaligi, logistika, qurilish va boshqa yoʻnalishlarda kooperatsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirishga alohida eʼtibor qaratildi.

Investitsiya loyihalarining yangi portfelini tayyorlash va joriy yil yakuniga qadar Qoʻqon shahrida Hududlar forumini oʻtkazish muhimligi taʼkidlandi.

Taʼlim, madaniyat va sport sohalaridagi hamkorlik faollashdi. Ikki mamlakat xalqlarini yaqinlashtirishga qaratilgan madaniy tadbirlarni oʻtkazish zarurligi taʼkidlandi.

Turkiy davlatlar tashkiloti va Yevropa Ittifoqi doirasidagi hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

Shu bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Ozarbayjon Respublikasiga amaliy tashrfi yakunlandi.

OʻZA

Ekspertlar fikri

OʻZBEKISTON PREZIDENTI TOMONIDAN ILGARI SURILGAN GLOBAL TASHABBUSLAR MAJMU

oʻzaro hamkorlikni chuqurlashtirish va turkiy dunyo ravnaqini taʼminlashga salmoqli hissa qoʻshadi

Oʻzbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 5-6-iyul kunlari Ozarbayjonning Shusha shahrida boʻlib oʻtgan Turkiy davlatlar tashkilotining “Transport, oʻzaro bogʻliqlik va iqlim

harakati orqali barqaror kelajakni bunyod etish” shiori ostidagi norasmiy sammiti tadbirlarida ishtirok etdi.

Xorijiy ekspertlar taʼkidlashicha, Turkiy davlatlar tashkilotining mazkur norasmiy

sammitida Oʻzbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan global tashabbuslar majmui oʻzaro hamkorlikni chuqurlashtirish va turkiy dunyo ravnaqini taʼminlashga salmoqli hissa qoʻshadi.

Antonio Alonso, Ispaniyaning San-Pablo universiteti professori:

— Oʻzbekiston Prezidentining Shusha shahrida boʻlib oʻtgan Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammitidagi faol ishtirokini alohida taʼkidlamogʻchiman. Prezident Shavkat Mirziyoyev oʻz nutqida turkiy davlatlar oʻrtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishning asosiy yoʻnalishlariga alohida toʻxtalib, bu umumiy barqaror kelajak sari muhim qadam ekanini taʼkidladi.

Oʻzbekiston rahbari transport aloqasi masalalariga alohida eʼtibor qaratdi va

Transkaspiy xalqaro transport yoʻlagini rivojlantirish boʻyicha tashabbuslarni ilgari surdi. Jozibador tariflar va biznes uchun “Yagona oyna” tizimini joriy etish taklifi, shubhasiz, yuk tashish hajmini oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, Oʻzbekistonda Temir yoʻl maʼmuriyatlari kengashi va Inson kapitalini rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish tashabbuslari innovatsiyalar va “bilimlar iqtisodiyoti”ni rivojlantirish istagidan dalolat beradi.

Nukusda iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashda birgalikdagi saʼy-harakatlarni birlashtirishga qaratilgan Turkiy ekologiya kengashini tashkil etish taklifi muhim tashabbus boʻldi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ularning energiya majmuasidagi ulushini 2030-yilga borib, 40 foizga oshirishga alohida eʼtibor qaratilayotgani Oʻzbekistonning “yashil” kun tartibi va ekologik barqaror rivojlanishga intilishini koʻrsatadi.

Nukusda iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashda birgalikdagi saʼy-harakatlarni birlashtirishga qaratilgan Turkiy ekologiya kengashini tashkil etish taklifi muhim tashabbus boʻldi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ularning energiya majmuasidagi ulushini 2030-yilga borib, 40 foizga oshirishga alohida eʼtibor qaratilayotgani Oʻzbekistonning “yashil” kun tartibi va ekologik barqaror rivojlanishga intilishini koʻrsatadi.

Derya Soysal, Markaziy Osiyo boʻyicha tarixchi, ekspert (Belgiya):

— Keyingi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti toʻlaonli xalqaro tuzilma sifatida shakllandi. U mintaqalararo va global ahamiyatga ega tinchlik hamda hamkorlik minbari boʻlibgina qolmay, balki jahon iqtisodiy oʻsish markazlaridan biriga aylandi. Bu oʻzgarishlar, jumladan, Oʻzbekistonning ushbu tuzilmadagi siyosiy va iqtisodiy oʻrni tufayli amalga oshmoqda.

Turkiy davlatlar tashkilotiga aʼzo mamlakatlarning tovar ayirboshlash hajmi 30 milliard dollarga yaqinlashayotgani quvonarli. Shu bilan birga, tomonlar ham oʻzaro, ham



TDT doirasida tovar ayirboshlashni oshirish boʻyicha ulkan maqsadlarni koʻygan va bunga turkiy davlatlar oʻrtasidagi aloqani mustahkamlovchi transport loyihalarini ishlab chiqish yordam beradi.

Oʻzbekiston rahbarining tashabbuslari aʼzo davlatlarning TDTga aʼzo boʻlmagan mamlakatlar bilan siyosiy va iqtisodiy hamkorligini yanada chuqurlashtirish nuqtayi nazaridan oʻz vaqtda ilgari surildi deb oʻylayman.

Ushbu format, bir tomondan, turli mintaqalar oʻrtasidagi hamkorlikni mustahkamlasa, ikkinchi tomondan, turkiy dunyo doirasida barqaror taraqqiyotni taʼminlaydi.

Xolid Akram Taymur, Pokistonning “Umumiy kelajak jamiyati” tadqiqot markazi ijrochi direktori:

— Mazkur tadbirda ishtirok etish, shubhasiz, Oʻzbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi muhim rolini bildiradi va mintaqalararo iqtisodiy integratsiya hamda oʻzaro hamkorlik masalalariga alohida eʼtibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

Sammitda savdo-iqtisodiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, transport aloqasi va oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash boʻyicha ishtirokchi davlatlarning saʼy-harakatlarini birlashtirish masalalari koʻrib chiqildi.

Oʻzbekiston yetakchisi TDTga aʼzo davlatlar oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikka katta ahamiyat berib, yangi strategiyani, jumladan, savdo toʻsiqlarini bartaraf etish, elektron tijoratni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmini oshirishni targʻib qiladi.

Shusha shahrida boʻlib oʻtgan “Transport oʻzaro bogʻliqligi va iqlim oʻzgarishiga qarshi

kurashish orqali barqaror kelajakni barpo etish” mavzusiga bagʻishlangan sammit turkiy xalqlar oʻrtasidagi barqaror rivojlanish va doʻstlik rishtalarini mustahkamlashda Oʻzbekiston yetakchiligini yana bir bor koʻrsatdi.

Taʼkidlash kerakki, 2019-2023-yillarda Oʻzbekiston Prezidenti tomonidan Tashkilot doirasidagi koʻp qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 50 dan ortiq aniq tashabbuslar ilgari surildi, ulardan 42 tasi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, qolganlari esa yakuniy bosqichda.

Oʻzbekistonning TDTga raisligi davrida 100 dan ziyod tadbirlar oʻtkazildi va yakunda “2022-2026-yillarga moʻljallangan TDT strategiyasi” qabul qilindi. Hujjat “Turkiy nigoh — 2040” konseptual dasturini amalga oshirish boʻyicha birinchi keng qamrovli “yoʻl xaritasi”ni ifodalaydi.

2019-2023-yillarda Oʻzbekiston Prezidenti tomonidan Tashkilot doirasidagi koʻp qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan 50 dan ortiq aniq tashabbuslar ilgari surildi, ulardan 42 tasi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan, qolganlari esa yakuniy bosqichda.

O In Kyong, Janubiy Koreyadagi Yevroosiyo turkshunoslik instituti direktori, professor:

— “Transport, oʻzaro bogʻliqlik va iqlim harakati orqali barqaror kelajakni bunyod etish” shiori ostida oʻtkazilgan Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti, haqiqatan, keng koʻlamli muhim masalalarni qamrab olgan.

Savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya va investitsion-moliyaviy sohalarida, shuningdek, “yashil” iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashish va inson kapitalini rivojlantirish sohalarida mintaqaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish masalalari oʻrin olgan kun tartibi zamonaviy global ustuvorliklarni oʻzida aks ettiradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev oʻz nutqida turkiy davlatlar oʻrtasidagi koʻp tomonlama va uzoq muddatli hamkorlikni rivojlantirish uchun qator ustuvor masalalar muhimligini



taʼkidladi. Ushbu yoʻnalishlar qatoriga transport infratuzilmasini mustahkamlash, iqtisodiyotni raqamlashtirish, logistika va transport yoʻlagi tashabbuslari kiradi. Bu esa iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, mintaqa barqarorligini oshiradi.

“Yashil energetika sari turkiy harakat” konsepsiyasini qabul qilish taklifi



Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yilda “Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari” shiori ostida Samarqandda boʻlib oʻtgan sammitdagi nutqida Oʻzbekistonning istiqbolli yondashuvi, umumiy rivojlanish va oʻzaro bogʻliqlik tarafdori ekanini taʼkidlangan edi.

Oʻzbekistonning TDT makonida ekologik toza texnologiyalar va energetikani rivojlantirishga intilishidan dalolat beradi. Ushbu tashabbus barqaror rivojlanishga, uglevodorodlarga qaramlikni kamaytirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Menimcha, bosh qarorgohi ekologik ofatdan eng koʻp jabr koʻrgan mintaq — Orolboʻyidagi yirik shahar Nukusda joylashadigan Turkiy ekologiya kengashining tashkil etilishi rasmiy Toshkentning ekologiya va tabiiy resurslarni asrash borasidagi saʼy-harakatlarini muvofiqlashtirishga intilishidan dalolat beradi.

Tashkilot shafeligida kelasi yili aniq fanlar boʻyicha Yoshlar turkiy olimpiadasi va Butunjahon turkshunoslar kongressini Oʻzbekistonda oʻtkazish taklifi turkiy xalqlar oʻrtasida taʼlim, ilm-fan va madaniy almashinuvni rivojlantirish, TDT oʻrtasida muloqot va oʻzaro hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

“Dunyo” AA

Investitsiya VENGRIYALIKLAR SURXONDARYOGA SARMOYA KIRITMOQDA

Vengriya YIning toʻlaonli aʼzosi. Shu bois, Oʻzbekistonning YI bilan aloqalarida Vengriya oʻziga xos koʻprik vazifasini oʻtamoqda. Mashinasozlik, oziq-ovqat, qora va rangli metallurgiya, elektronika, mebel va yengil sanoat bu mamlakat sanoatining yetakchi tarmoqlari hisoblanadi. Binobarin, Oʻzbekiston va Vengriya ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish uchun yuqori imkoniyat va salohiyatga ega.



Keyingi yillarda bu ikki davlat munosabatlari sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichiga koʻtarilib, oʻzaro manfaatli hamkorlikning istiqbollari ochilmoqda. Birgalikdagi intilish va amaliy ishlar natijasi oʻsharoq yildan yilga ushbu davlat ishtirokidagi qoʻshma korxonalar soni ham ortib boryapti. Buni soʻnggi yillarda oʻzaro tovar ayirboshlash hajmi 3 barobar ortganida ham koʻrish mumkin.

Surxondaryo viloyatida vengriyalik investorlar hudud salohiyatidan kelib chiqib, oziq-ovqat yoʻnalishida qator loyihalarini hamkorlikda yoʻlga qoʻyishga bel bogʻlamoqda. Jumladan, bolalar ozuqasi va sut mahsulotlari ishlab chiqarish yoʻnalishida bir qator hamkorlik hujjatlari imzolandi.

Oʻzbekistondan Vengriyaga eksportning asosini toʻqimachilik, xizmatlar, oziq-ovqat, plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar tashkil etadi. Bugungi kunda Oʻzbekistonda Vengriya kapitali ishtirokida tashkil etilgan 16 ta korxona muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Ularning 10 tasi koʻshma korxona hisoblanadi. Endilikda bu raqamlar yana ikkigtga ortadi.

— Biz bir necha kun davomida Surxondaryo viloyatida boʻlib, hamkorlar bilan muloqot olib bordik. Ularning shart-sharoitlari hamda bozor bilan yaqindan tanishdik. Xulosa shu boʻldiki,

Oʻzbekistonga bemaol investitsiya kiritishimiz mumkin. Surxondaryo esa xorijliklar uchun qay geografik joylashuvga ega. Tojikiston va Afgʻoniston bilan chegaradosh. Sotuvda ham hamkorlarni topish muammo emas, — deydi vengriyalik investor Tomas Semerey. — Biz loyihaga asosan, bolalar uchun vitaminbop va yuqori sifatga ega ozuqa mahsulotlari ishlab chiqaramiz. Dastlab ushbu turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarini bunyod etamiz yoki mavjudlarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlaymiz va ish boshlaymiz. Shu bilan birga, bu yerda yangi ish oʻrinlari ham yaratamiz.

Maʼlumotlarga koʻra, bugun Oʻzbekistonda 11 millionga yaqin 13 yoshgacha boʻlgan bolalar bor. Ular uchun mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan ozuqaning katta qismi sut va sut mahsulotlaridan iborat. Meva-sabzavotlardan tayyorlanadigan bolalarbop ozuqa esa xorijiy davlatlardan import qilinadi. Oʻzbekistonlik va vengriyalik tadbirkorlar ishtirokida imzolangan ushbu loyiha asosida endi vohaning oʻzida 15 turga yaqin ana shunday vitaminlarga boy bolalarbop ozuqa mahsulotlari tayyorlanadi.

— Bolalar ozuqasi shu kungacha import qilinardi, — deydi tadbirkor Ramazon

Poʻlatov. — Endi Surxondaryoning oʻzida bu kabi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Avvaliga mahalliy bozor, soʻngra eksportni ham koʻzda tutganmiz. Buning uchun ikki tomonning ham salohiyati yetadi.

Hamkorlikda loyihalarini amalga oshirish uchun viloyatda yetarlicha sharoit va imkoniyat bor. Yana bir gap. Qumqoʻrgʻon tumanida bugungacha hamkorlikda meva va sabzavotni qayta ishlash, uni quritishga moʻljallangan korxona faoliyat yuritib kelayotgandi. Endilikda aynan shu tumanda bolalar oziq-ovqati yoʻnalishidagi yana bir loyiha ish boshlaydi.

— Xorijiy hamkorlarimiz Surxondaryoda yetishtirilgan meva-sabzavotlar vitaminbopligi, servus va xushtaʼmliyini oʻrganib chiqdi. Qulay sharoit va imkoniyat, xususan, ishchi kuchi yuzasidan ham bu loyiha yoʻlga qoʻyilayapti, — deydi Ramazon Poʻlatov. — Bozorni oʻrganib chiqdik. Hozir import qilinayotgan bolalar ozuqa mahsulotlarining 100 grammida kamida 15 ming soʻmdan sotilmoqda. Biz ishlab chiqarmoqchi boʻlayotgan mahsulotlarimiz narxi esa 100 gramm 7 ming soʻmdan baholanadi. Bu ikki barobar arzon, degandiri.

Natijada 100 ga yaqin doimiy ish oʻrni yaratiladi. Yana salkam 2 ming nafar vohalikning mavsumiy tarzda ish bilan bandligi taʼminlanadi. Boshqacha qilib aytganda, hududda yetishtirilayotgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari uchun oʻziga xos bozor yaratiladi.

— Vengriya texnologiyasi asosida sutni qayta ishlash jihozlari keltirib oʻrnatishga kelishib olindi, — deydi “Surxon sanoat qurilish” kompaniyasi rahbari oʻrinbosari Oleg Volovik. — Bir kecha-kunduzda 100 tonnagacha sutni qayta ishlashni rejalashtirganmiz. Ikki tomondan ham tajribali mutaxassislar ish olib borayotgani, aniq tashabbus va loyihalarini birgalikda amalga oshirish imkonini beradi.

Joriy yilning 7-9-aprel kunlari amaliy tashrif bilan Vengriyada boʻlib qaytgan Surxondaryo viloyati hokimi boshchiligidagi delegatsiya ushbu yurt kompaniyalari bilan Surxondaryoda baliqchilik va plastmassani qayta ishlash yoʻnalishida umumiy qiymati 37 million yevroga teng yangi loyihalarini amalga oshirish yuzasidan ham kelishuvga erishdi.

Aytish lozimki, bu yangi loyihalar Oʻzbekiston va Vengriya oʻrtasidagi sheriklikni yanada mustahkamlash va koʻp qirrali hamkorlikni kengaytirish imkonini beradi.

Sarvar TOʻRAYEV, “Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Tadbirkorlar bilan ochiq muloqot oldidan

ISHONCH, RAG‘BAT,
HUQUQIY KAFOLATISHBILARMONLARIMIZNI
ILHOMLANTIRAYOTGAN KUCH

Dilmurod QOSIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining
huquqlari va qonuniy manfaatlarini
himoya qilish bo‘yicha vakil

Iqtisodiyotni muvaffaqiyatli rivojlantirish yo‘lini tanlagan mamlakatlar xususiy sektorni tartibga solishda davlatning rolini kamaytirish, bozor mexanizmlari samarali ishlashi uchun sharoit yaratish va erkin raqobatni ta‘minlashga intiladi. O‘zbekiston ana shunday davlatlardan. Bu mamlakatimizning keyingi yetti yilda bozor iqtisodiyotiga o‘tish, qulay biznes muhiti yaratish, aholi orasida tadbirkorlikni rivojlantirish hamda investitsiyalar jalb etishdagi faolligida yaqqol ko‘rinyapti.

Endi ishbilarmonlik muayyan doira vakillari emas, balki oddiy aholi o‘rtasida ham ommalashayotgan katta tarmoqqa aylandi. Mamlakatimizda yaratilgan biznes muhiti barchaga teng imkoniyat bermogda. Qulay tadbirkorlik muhiti shakllanib, O‘zbekiston ishbilarmonlar yurtiga aylanib borayotgani amaliy natijalarda ham aks etyapti.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining har yili tadbirkorlar bilan an’anaviy o‘tkazilayotgan ochiq muloqoti dunyo tajribasida deyarli o‘xshashi yo‘q mexanizmdir. Gap shundaki, Prezidentimizning biznes vakillari bilan uchrashuvi shunchaki muloqotga asoslanmaydi, balki sohadagi muammolar o‘rtaga tashlanib, aniq yechimlar beriladi.

Masalan, 2021-yilda bo‘lib o‘tgan ilk ochiq muloqot natijalari bo‘yicha 57 ta, 2022-yilda 55 ta, o‘tgan yili esa 56 ta tashabbus ilgari surilib, muammolar ijobiy yechim topdi. Qabul qilinayotgan farmon va qarorlar biznes egalari faoliyatiga yengillik berib, ish rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmogda.

Muhimi, bugun tadbirkor davlat himoyasida va faoliyatiga hech kim aralashmaydi, to‘siq qo‘ya olmaydi. Buning uchun huquqiy asoslar ham yaratilyapti. Barqaror iqtisodiy o‘sinh va rivojlanishga intilayotgan O‘zbekiston tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish borasida salmoqli qadamlar qo‘ymogda. Jumladan, keyingi yillarda mamlakatda biznesni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan 3 mingdan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Bu yo‘nalishdagi ulkan islohotlarga qadam 2017-yildan boshlangani ko‘pchilikning yodida. Boisi, o‘shanda davlatning tadbirkorlik ustidan nazorat funksiyalarini kamaytirib, biznes yuritishni erkinlashtirish borasidagi sa’y-harakatlariga ayrimlar ishonmagandi. Tadbirkorlar faoliyatiga g‘ov bo‘lib kelgan barcha to‘siqlar qisqa muddatda bosqichma-bosqich bartaraf etildi. Ishbilarmonlarga qo‘llanadigan jazo choralarini liberalashtirish, ular faoliyatiga asossiz aralashuvlarni yo‘qotish, xorijiy davlatlar bilan yaqin diplomatik aloqalarni mustahkamlash, eksport-import jarayonini soddalashtirish — ularning barchasi biznes muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni rivojlantirish, sohani faol kengaytirish uchun katta rag‘bat berdi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rejadan tashqari tekshirishning barcha turi, jumladan, jinoyat ishlari bo‘yicha qarshi tekshiruvlar bekor qilindi. Tadbirkorlar faoliyatidagi tekshiruvlarga moratoriy qo‘yish mexanizmi joriy etildi va u hozir ham faol qo‘llanmogda.

Natijada oddiy odamlar orasida kichik va o‘rta biznes vakillari ko‘paydi. Ishbilarmonlikka qiziqish va ishonch ortdi. Endi tadbirkorlikka qo‘rquv bilan emas, balki katta maqsad va loyihalar bilan kirib keliyapti.

Soha vakillarini qo‘llab-quvvatlab, har tomonlama ko‘mak beradigan tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2017-yilda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Biznes ombudsman shulardan biri. Prezidentga hisobdor bo‘lgan ushbu organ mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, shuningdek, tadbirkorlikni rivojlantirishdagi turli to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritadi. Bu takliflar bevosita biznes vakillarining murojaati, ko‘tarayotgan muammolari asosida tayyorlanadi va taqdim etiladi.

OCHIQ MULOQOT —
MUAMMOLARNI HAL ETISH
KALITI

Faoliyatida muayyan qiyinchilik yoki to‘siqqa duch kelganda har bir tadbirkor uchun muammolari tinglanishi juda muhim. Ayniqsa, masala davlat organlari aralashuvini talab qilsa, dolzarblilik yanada ortadi. Tabiiyki, davlatning

iqtisodiy rivojlanishi sharoitida biznes uchun qiyinchilik tug‘diradigan muammolar uchrab turadi. Ularning ba’zisi yuqori hokimiyat organlarining tezkor aralashuvini talab qiladi.

Tadbirkorlar bilan har yili avgustda o‘tkazib kelinayotgan ochiq muloqot aynan shunday vaziyatlarda yechim bo‘lib xizmat qilmogda. Ishbilarmonlar bevosita davlatimiz rahbari bilan muloqot qilib, muammo va takliflarini bildiriyapti, zarur yechim olyapti. Ochiq muloqot doirasida hududlar bo‘yicha uchrashuvlar o‘tkazish orqali tadbirkorlarga so‘z aytish imkoniyati beriladi. Eng dolzarb va asosli takliflar tahlilidan so‘ng tegishli qaror qabul qilish uchun davlatimiz rahbariga yetkaziladi. Bundan tashqari, ochiq muloqot kunida ham yuzlab tadbirkorlarning taklif va murojaati tinglanadi.

O‘tgan uch yilda ochiq muloqot chog‘ida tadbirkorlardan 33 mingdan ortiq murojaat va taklif kelib tushdi. Jarayon yakunida tadbirkorlikni rivojlantirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish, shuningdek, sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan 150 dan ortiq tashabbus ilgari surildi. Masalan, 2021-yildagi tashabbuslarning aksariyati pandemiya oqibatlarini yumshatish, soliq va bojxona imtiyozlari muddatini uzaytirish hamda soliq va majburiy to‘lovlarni kechiktirishga qaratilgan edi.

2022-yildagi muloqot esa turli yo‘nalishda biznes vakillarini qo‘llab-quvvatlashga oid tashabbuslar bilan ajralib turdi. Jumladan, QQS foizini 12 foizga tushirish, QQSni qaytarish muddatini 7 kungacha qisqartirish, 4 foizdan 25 foizgacha bo‘lgan aylanmadan olinadigan soliq o‘rniga 4 foiz miqdorida yagona soliq stavkasi joriy etish kabi soliq islohotlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari, yer uchastkalari yoki mol-mulkni ajratish to‘g‘risidagi qarorni faqat sud tartibida bekor qilish amaliyoti joriy etilgani tadbirkorlar huquqlarini ta‘minlash mexanizmlarini kengaytirdi.

Ochiq muloqot ko‘lami ham, qamrovi ham yildan yilga kengayib boryapti. Har yilgi uchrashuv katta islohotlar boshlanishi

Bu yildan yurtimizda
Tadbirkorlik
subyektlarining barqarorlik
reytingi joriy etilishi ham sohadagi
katta qadamlardan biri bo‘ldi.
Reyting tizimi tadbirkorlarni o‘z
faoliyatini yaxshilash va
yuqori reytingga erishish
uchun intilishga
undamoqda.

bilan ajralib turibdi. Xususan, o‘tgan yilgi ochiq muloqot yakuni bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Kengash yig‘ilishlari har oyda o‘tkazilib, ularda bugunqa qadar 48 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi muhokama qilindi.

Ushbu muloqotning o‘ziga xos jihatlardan yana biri shuki, tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmlari tubdan qayta ko‘rib chiqildi. “Biznesni rivojlantirish banki”, “Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatlari tashkil etildi. Qolaversa, ko‘plab tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan soliq islohotlari o‘tkazildi. Ochiq



muloqotda belgilangan vazifalar va ularning natijadorligi doirasida 23 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Bu yildan yurtimizda Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilishi ham sohadagi katta qadamlardan biri bo‘ldi. Reyting tizimi tadbirkorlarni o‘z faoliyatini yaxshilash va yuqori reytingga erishish uchun intilishga undamoqda. Reytingda yuqorilayotgan tadbirkor esa bir necha mezonda yanada hududlar bo‘yicha uchrashuvlar o‘tkazish orqali tadbirkorlarga so‘z aytish imkoniyati beriladi. Eng dolzarb va asosli takliflar tahlilidan so‘ng tegishli qaror qabul qilish uchun davlatimiz rahbariga yetkaziladi. Bundan tashqari, ochiq muloqot kunida ham yuzlab tadbirkorlarning taklif va murojaati tinglanadi.

TADBIRKORLAR
KUTAYOTGAN KUN

O‘zbekiston 2027-yilga borib, xususiy sektorning YIMdagi ulushini 80 va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish kabi ulkan maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan. Buning uchun tashlanayotgan qadamlar ham shunga monand.

Biznesni yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tezkor sa’y-harakatlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham mustahkamlangan. Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish, monopoliya



sohalarini bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga o‘tkazish, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, tadbirkorlarning erkin faoliyati uchun eng qulay shart-sharoit yaratish dolzarb masala bo‘lib qolmogda.

Bundan tashqari, yaqin kelajakda rasmiy sektor noqonuniy faoliyatga nisbatan afzal va foydaliroq bo‘lishi uchun soliq tizimini to‘liq raqamlashtirish va soddalashtirish, shuningdek, barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyat yaratish rejalashtirilmogda. Buning uchun aholi va tadbirkorlarga qulay bo‘lgan soddalashtirilgan va ixcham qonunchilik tizimi yaratiladi.

Ahamiyatlisi, sohadagi barcha o‘zgarish va yangilanishlarda bugun biznes vakillarining o‘zi bevosita ishtirok etyapti. Joriy yil Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ilk bor Qoraqalpog‘istonda bo‘lib o‘tadigan navbatdagi ochiq muloqotiga tayyorgarlik jarayonida ham bunga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ishbilarmon doira vakillari ushbu kunni intizorlik bilan kutar ekan, o‘z taklif va tashabbuslarini faol bildirmogda. Ularning yechimi va belgilanadigan vazifalar, biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha e‘lon qilinadigan yangi tashabbuslar soha rivojida navbatdagi muhim qadamlardan bo‘lishi kutilmogda.

QO‘SHIMCHA
IMKONIYAT VA XIZMATLARQORAQALPOG‘ISTONLIK BIZNES
EGALARIGA QULAYLIK YARATYAPTI

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tadbirkori ko‘p hududlar rivojlanib, sohalarida o‘sinh, aholi daromadi oshishi, ishsizlar bandligi ta‘minlanayotgani yaqqol ko‘zga tashlanmogda. Eng chekka joylardagi o‘qimagan, biror kasb-korga ega bo‘lmaganlar ham yangi ochilayotgan korxona, sexlarda mehnat qilib, ro‘zg‘or tebratyapti. Keyinchalik ishini puxta egallab, tadbirkorlikka qo‘l urayotganlar ham ko‘p. Yurtimizda ishbilarmonlik qanchalik faol qo‘llab-quvvatlanayotgan bo‘lsa, odamlar bundan shuncha unumli foydalanib, o‘zi va atrofidagilarning turmush farovonligini oshirish, mamlakatni iqtisodiy taraqqiy ettirishga hissa qo‘shmogda.

Shu kunlarda qaysi ishbilarmon bilan suhbatlashmang, 20-avgust — Tadbirkorlar kuni hamda yilning eng kutilgan voqeasi — Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti haqida gapiradi. Haqiqatan, biznes doira vakillari bu uchrashuvni har yildagi kabi katta qiziqish bilan kutmogda. Nafaqat kutaypti, balki taklif va tashabbus bildirishda faollik ko‘rsatmogda. Maqsad sohadagi muammolarni o‘rtaga tashlab, birgalikda hal etishga erishish, tadbirkorlar manfaatdorligini ta‘minlashdan iborat.

9-fevraldagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ham ushbu jihadlar aks etgan.

Bu borada yangicha yondashuvlar joriy etilgani alohida ahamiyatga ega. Gap “O‘zsanoatqurilishbank” aksiyadorlik tijorat bankinging Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mas‘ul muassasa etib belgilangani haqida bormogda. Mazkur hamkorlikning asosiy maqsadi hududdagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, zarur barcha moliyaviy ko‘makni berish hamda bank xizmatlari ko‘rsatishda tezkorlik va zamonaviyligni oshirib, ishbilarmonlarga qulayliklar yaratishga qaratilgan. Bu borada bank tomonidan ko‘plab loyihalar amalga oshirib kelinmogda. Xususan, hududda investitsiya imkoniyatini oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga qaratilgan amaliy ishlar faol davom ettirilyapti.

— Qoraqalpog‘istondagi 452 ta mahalla bankka biriktirilgan bo‘lib, joriy yilda ularida yashayotgan 120,7 ming odamning bandligini

Qoraqalpog‘iston
2 million kishidan ortiq
aholiga ega kattagina hudud.
17 ta shahar va tumanda
452 mahalla mavjud bo‘lib, odamlar
turli sohalaridan daromad topadi.
Aholi bandligini ta‘minlash va
tadbirkorlikni rivojlantirishga
qaratilgan harakatlar to‘g‘ridan
to‘g‘ri mahallalarda amalga
oshirilmogda.

ta‘minlash hamda 86,6 ming kishini biznesga jalb qilish bo‘yicha har bir yo‘nalish, soha, tuman (shahar) va mahallada oyma-oy reja ishlab chiqilgan, — deydi “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududiy boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Minajatin Uzakbayev. — Ushbu jarayonda investitsiyaviy loyihalaridan tortib, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, tadbirkorlik kabi barcha yo‘nalishlarga qamrab olingan. Bu aholining qiziqishi, imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, biriktirilgan mahallalarda tadbirkorlik qilish istagidagi ishsiz aholi bandligini ta‘minlash, tomorqadan samarali foydalanish, bozorbor mahsulotlar yetishtirish va sotish bo‘yicha tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yyapmiz. Kuzatuvlarimiz natijasida ko‘pgina odamlarning o‘z tomorqasidan foydalanishga qiziqishi borligi, ammo mablag‘ yo‘qligi sabab imkon topa olmayotganiga guvoh bo‘ldik. Shu bois, bank tomonidan bu yo‘nalishda yangi kredit mahsulotlari ishlab chiqildi.

“O‘zsanoatqurilishbank” oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri aholini tadbirkorlikka rag‘batlantirish, buning uchun qulay moliyaviy manbalarni yaratishdan iborat edi. Shu maqsadga bank tomonidan ishbilarmonlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hisobidan yangi ish o‘rinlari yaratishni ta‘minlashga qaratilgan 30 dan ortiq jozibador bank mahsuloti ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etildi. “Biznesga birinchi qadam”, “Biznesga birinchi qadam — 2”, “Tadbirkorga ko‘mak”, “Yashil” ish o‘rinlari, “Mikro”, “Imkoniyat”, “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis”, “Mahalla tadbirkori” kabi amaliyotlar shular jumlasidan.

Ayni paytda Qoraqalpog‘istondagi yuz mingdan ziyod jismoniy va 2,5 mingdan ortiq yuridik shaxs ushbu bank xizmatlaridan foydalanmogda. Aholi, xususan, tadbirkorlarga qulaylik yaratish maqsadida zamonaviy, tezkor, ilg‘or texnologiyalarga asoslangan xizmatlar soni ortib boryapti. Bu yil iyunidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarmoqlarida ishga tushirilgan anderryating xizmati shulardan biri.

Mutaxassislarning tushuntirishicha, mazkur xizmat kredit ajratish jarayoni shaffofligini

ta‘minlaydigan, kredit bo‘yicha mas‘ul shaxslar tomonidan xolis, shaxsiy manfaatlar ishtirokisiz qaror qabul qilishga asoslangan tizimdir. Ajratilayotgan kreditlarni rasmiylashtirish va so‘ndirilishiga barcha barcha jarayonni nazoratda ushlab turish kreditlarni boshqarish xizmati zimmasiga yuklatilgan. Ushbu ikki tuzilma bank kredit portfeli sifatini saqlash hamda muammoli kreditlar ulushini kamaytirishda ta’sirchan mexanizm ekanini aytilmogda.

Asosiysi, joriy etilgan kreditlashning yangi mexanizmi tizimda korruptsiyaga qarshi murossiz munosabatni shakllantirishga xizmat qilyapti. Ya’ni yuridik va jismoniy shaxslarga ajratiladigan kredit hujjatlari ortiqcha byurokratik to‘siqlarsiz, shaffoflik tamoyili asosida qisqa muddatda ko‘rib chiqilmogda. Natijada jismoniy shaxslarning kredit hujjatlarini o‘rganish 1 soatdan 15 daqiqaga, yuridik shaxslarini ko‘rish esa 1 kundan 2 soatga qadar qisqartirishga erishilgan.

MASOFA YAQIN BO‘LDI

Tadbirkor moliyaviy amaliyotlarining ko‘pini bank xizmatlari orqali amalga oshiradi. Avvallari bu jarayon qanchalik qiyin bo‘lgani, banka borgan odamning bir necha kunlab ishi bitmagani ko‘pchilik yaxshi eslaydi. Hozir aksariyat xizmatlar elektron, inson omilisiz qisqa muddatlarda bajarilyapti. Bu har daqiqasi qimmatli tadbirkor uchun katta qulayliklardan.

Davlatimiz rahbarining o‘tgan yili tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ham bank-moliya masalalari ko‘tarilgan edi. Umuman, bu doimiy takomillashtirib, qulayliklarni oshirib borishni taqozo etadigan tizim. Raqobat muhitida tijorat banklari ham shunga intilyapti. Mijozlarga qulaylik yaratish maqsadida moliyaviy xizmatlar ko‘lamini kengaytirishga urinmogda.

O‘tgan hafta “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qonliko‘l tumanida ishga tushirilgan yangi bank xizmatlari markazi ham tadbirkorlar uchun qo‘shimcha qulaylik bo‘ldi. Hudud ahli shu kungacha qadar bank xizmatlaridan foydalanish uchun 30 kilometr uzoqlikda joylashgan “Qo‘ng‘iro‘l” BXMga borishga majbur edi. Endi tumanning o‘zida ochilgan yangi bank xizmatlari markazi odamlar, ayniqsa, biznes egalarning vaqti va naqdini tejaydi.

— Soham yuzasidan bank xizmatlariga ko‘p ishim tushadi, — deydi “Tazabay-To‘lg‘anay” nodavlat ta’lim muassasasi rahbari Zina Yusupniyazova. — Hozir banklarda xizmat ko‘rsatish sifati yuqori, tezkorlik, shaffoflik borligi bizni qoniqtiradi. Ammo yozning chillasi, qishning qirovli kunlari Qo‘ng‘iro‘tga qatnash bir oz malol kelardi. Tumanimizda bank tarmog‘i ochilgani yaxshi bo‘ldi. Bu biz, tadbirkorlarga har tomonlama yengillik yaratadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Qonliko‘l tumanida 54 mingga yaqin kishi istiqomat qiladi. Ayni paytda 880 dan ortiq tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritmogda. Qolaversa, tumandagi 88 ta budget tashkilotida 4 mingdan ziyod xodim mehnat qiladi. Bu mazkur hududda bank xizmatlariga talab borligi hamda mijozlar sonini oshirish imkoniyati yuqori ekanidan dalolat.

— Talab bor joyda taklif ham bo‘ladi. Qoraqalpog‘istondagi jadal rivojlanish, tadbirkorlar sonining ortishi, aholi bandligi oshib borayotgani bank xizmatlariga talabni oshirmogda, — deydi Minajatin Uzakbayev.

— Bugun Qoraqalpog‘istonda birgina “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 1 ta bank xizmatlari ofisi, 6 ta bank xizmatlari markazi, 10 ta 24/7 rejimida ishlovchi shoxobchasi hamda yirik korxonalar negizida ochilgan 3 ta chakana amaliyot kassasi aholiga doimiy xizmat ko‘rsatib kelayotir. Qonliko‘l’da ochilgan yangi bank xizmatlari markazida ham mijozlarga onlayn xizmat bo‘yicha konsalting hamda kredit va omonatlarni rasmiylashtirish, hisobraqam ochish, valyuta ayirboshlash, xalqaro pul o‘tkazmalari kabi bir qancha xizmatlar ko‘rsatila boshladi. Ayni paytda 24/7 rejimida ishlovchi bank uskunlari to‘liq ish holatiga keltirilgan. Markazda 5 malakali xodim faoliyat yuritadi.

Nafaqat bank tizimi, balki barcha sohalarida ishbilarmonlarga qulaylik yaratilib, har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani bejiz emas. Boisi, yurtimizda tadbirkorlari ham shunga javoban mehnat qilyapti. O‘z ustida ishlab, rivojlanaypti. Odamlarni ishli qilib, xalq farovonligini ta‘minlashga munosib hissa qo‘shmogda. Ularni hech ikkilanmay, ona zaminimizning har jabhdagi imkoniyatlarini ochayotgan, yurtimiz nomini dunyoga tanitayotgan katta kuch deb aytalolamiz.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi

BUGUNGI ADVOKAT HUQUQINGIZNI ISHONCHLI HIMOYA QILISHGA QODIRMI?

YOXUD ADVOKATURA INSTITUTIDA KECHAYOTGAN YANGILANISHLARGA BIR NAZAR

Hulkar TO'YMANOVA,
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan jurnalist

"Agar qozi xafa qilsa, dodingni kimga aytasan?" Xalqimizning ushbu naqlida chorasizlik, norizolik xulosasi mujassam. Haqiqatan, siz duch kelgan nohaqlik bo'yicha arz qilishingiz mumkin bo'lgan tashkilot yoki mansabdor shaxs huquqingizni poymol qilib tursa, yana kimga murojaat etish mumkin? O'tmishda vakolatli shaxslar qarorining hal qiluvchi ahamiyati yuqori bo'lgan. Bugungi huquqiy normalarga tayangan dunyoda-chi, "qozi xafa qilsa", ko'nib ketaveramizmi? Yo'q, albatta. Chunki bugun haq-huquqlarimizni ishonchli himoya qiladigan huquqiy tizim yaratilgan. Advokatura instituti shulardan biri.

Advokatlar palatasining 17 davlat bilan imzolangan hamkorlik memorandumini muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2022-2023-yillarda hamkor davlatlar advokatlari ishtirokida ikki bor xalqaro konferensiyangiz O'zbekistonda o'tkazilishi ijobiy hodisa bo'ldi.

Advokatura institutining yanada faol ishlashiga xalal beradigan muammolar ham yo'q emas. Ba'zi hollarda advokat o'z so'roviga vaqtda javob ololmaydi.

RAQAMLASHTIRISH — MUHIM JARAYON

Hozir xoh davlat idorasi, xoh bank yoki shifoxonaga boring, qo'l bilan bajariladigan xizmat turlari elektron tizimga o'tkazilmoqda. Zero, raqamli transformatsiya jamiyatni yanada modernizatsiya qilish va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish omilidir. Bu qog'oz to'ldirish, navbat kutish, ta'magirlik

Advokat chigal masalalarga duch keladi, kalavaning uchini topish uchun oylab izlanadi, taqdim etilgan hujjatlarni o'rganadi, "ish" bilan bog'liq idoralarga qatnaydi. Mushkuli oson bo'lishidan umidvor shaxsga amaldagi qonunchilik normalari asosida huquqiy yordam ko'rsatuvchi advokatning eshigidan odam arimaydi. Qonun doirasida halol, vijdonan ishlagan kadrning yuzi hamisha yorug', obro'si baland, xizmati e'tirofga loyiq.



qilish, tanish-bilishchilik kabi salbiy holatlarga barham beradi. Demak, advokatura tizimini raqamlashtirmay turib, uni rivojlantirish, xizmat sifatini oshirish haqida gapirib bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 30-maydagi "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonun aynan shu maqsadga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjat bo'ldi. Bir-biriga bog'liq har ikkala hujjat advokat faoliyatini yengillashtiradi, uning vaqtini tejaydi. Agar advokatning ichki ishlar, prokuratura, sud va boshqa organlar bilan birgalikda surishtiruv ishlari olib borishini inobatga olsak, papka qo'tiqlab, goh u, goh bu idoraga yugurishini ko'z oldingizga keltirib, qancha vaqt, qancha asabi ketadi? Idoralararo elektron ma'lumot almashinuvi yo'liga qo'yilsa, uning ishi oson va engil kechadi.

— Avvalo, "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi qonun qabul qilinganligi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun amalga oshirildi, — deydi Adliya vazirligi katta maslahatchisi Bunyodbek Rahimov. — Davlat hisobidan yuridik xizmat olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga yengillik yaratish maqsadida 7 ta qonunga jinoyat, fuqarolik, ma'muriy huquqbuzarlik

qilishga ruxsat berilmaydi. Advokatlik tuzilmalari va Advokatlar palatasi faoliyati kafolatlarini ta'minlashga ko'maklashish, aholining malakali yuridik yordamga bo'lgan huquqlarini yuzaga chiqarish maqsadida 2023-yil 1-yanvardan 2024-yil birinchi choragi yakuniga qadar "Litsenziya" axborot tizimi orqali 1336 ta litsenziya rasmiylashtirilib, himoyachilar 5509 kishiga yetdi. Advokatlik tuzilmasini davlat ro'yxatidan, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali "yagona darcha" tamoyili asosida faqat elektron tarzda amalga oshirilmoqda. Adliya organlariga tashrif buyurmay, zarur hujjatlarni elektron tarzda mazkur portalgacha kiritilib, uning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan haqidagi QR-kod qo'yilgan guvohnoma rasmiylashtirildi.

Yuridik yordam ko'rsatish jarayonini raqamlashtirish, advokatura sohasini davlat organlari bilan integratsiyalash maqsadida "Yuridik yordam" axborot tizimi ishga tushirilishi tufayli ularning elektron reyestri va shaxsiy elektron kabineti shakllantirildi. Nogironligi bo'lgan shaxslar ixtiyoriy bepul yordam olish uchun advokatlik tuzilmalarida maxsus murojaat bo'limi (pro bono) yaratildi. 2023-yil 1-fevraldan advokatga muayyan ishini yuritish uchun an'anaviy shakldagi order maqomiga tenglashtiriluvchi maxsus QR-

tizimda shug'ullanuvchilarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Konstitutsiyamizga muvofiq, mamlakatimiz va chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar korxona, muassasa, tashkilotlar uning yuridik yordamidan foydalanishi mumkin.

Keyingi yillarda advokatura odamlar ishonchini qozongan huquqni himoya qiluvchi institutga aylanishi uchun barcha chora-tadbirlar ko'rilaypti. Ularining huquqlarini to'liq ro'yogga chiqarish uchun to'siq bo'layotgan, ishonchi va sifatlari yuridik yordam ko'rsatilishiga xalal berayotgan omillar bartaraf etilmas ekan, u nufuzli qatlam bo'la olmaydi. Bosh qonunimizdagi advokatura roli va ahamiyatini kuchaytirishga qaratilgan yana bir normaga ko'ra, advokat o'z kasbiy vazifasini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashish mumkin emas. Bu unga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahat berishi uchun shart-sharoit yaratadi. Demak, bu advokatning sha'ni, qadr-qimmat va kasbiy faoliyati davlat himoyasiga olinib, qonun bilan muhofaza qilinganidan dalolat beradi.

Sud ishini yuritishda tenglik va to'rtushuv prinsiplariga to'liq rioya qilinishida advokaturaning roli beqiyos. U nizoni sudgacha hal qilishi, tomonlarni yarashtrish choralarni ko'rishi kerak. Advokatlariga mazkur sohada

shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyani olish uchun majburiy stajirovka o'tash muddatining olti oydan uch oyga qisqartirilgani ularga yaratilgan yana bir yengillik bo'ldi. Amaldagi advokat va yangidan bu maqomni olgan shaxs Advokatlar palatasi, Adliya vazirligi tomonidan har bir tanlangan mutaxassislik bo'yicha alohida litsenziya asosida yuridik yordam ko'rsatadi. Avvaldan ishlab kelayotgan advokat litsenziyasini qayta rasmiylashtirmaydi, qayta attestatsiyadan o'tkazilmaydi va yig'implarni to'lashdan ozod etiladi. Sudning advokatni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish to'g'risidagi ayblov hukmi kuchga kirgan taqdirda, sudya bir sutka ichida Adliya vazirligi va Advokatlar palatasini belgilangan tartibda yozma xabardor qilishi lozim. Bunday imkoniyatlar oliy ma'lumot olish davridayoq advokatlik qilaman degan yoshlarda qiziqish uyg'otishi tabiiy, albatta.

KASB ETIKASI — BIRLAMCHI TALAB

Har qanday kasb egasining o'z ishiga vijdonan yondashuvi, halol, sidqidon xizmat qilishi qadrlanadi, unga obro'-e'tibor keltiradi. Nojoiz, noqonuniy xatti-harakat kishining yuzini shuvut qiladi, yillar davomida misqolab yiqqan obro'sini chippakka chiqaradi. Yurtimizda barcha sohalarni singari advokatura instituti amaldagi qonunchilik talablari asosida tashkil etilayotgan bo'lsa-da, ba'zan bu kasb egasi sha'niga dog' tushirayotganlar ham uchrab turadi. Ayrim advokatlarning firibgarlik yo'li bilan fuqaro



mablag'ini olib, ularga hech qanday yengillik yaratmasdan, ishini oxiriga yetkazmay, arasatda qoldirib ketish faktlari yo'q emas. Advokatlar palatasi hamda Adliya vazirligi tomonidan kasbini suisite'mol qilayotgan bunday kadrlarga nisbatan qanday chora ko'rilaypti?

— Advokat — himoyachi, u kimdandir jabrlangan, haq-huqni toptalgan yoki katta miqdorda moddiy-ma'naviy zarar ko'rgan shaxsni tegishli qonunchilik hujjatlari doirasida muhofaza qilishi kerak, — deydi Adliya vazirligi bosh maslahatchisi Yoqutxon Yusupova. — Mamlakatimizda 5400 dan ortiq advokat mustaqil faoliyat yuritadi. "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunda bu kasb egasining burch, majburiyat va haq-huquqlari qat'iy normaga solingan. Qonunchilik hujjatlarida Adliya vazirligining advokatlariga nisbatan ta'sir choralarini qo'llash vakolati nazarda tutilmagan. "Advokatura to'g'risida"gi qonunga asosan, soha xodimi kasb etikasi qoidalarini buzsa, intizomiy javobgarlik belgilangan, uni qo'llash masalasi Advokatlar palatasi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi, hududiy boshqarmalar huzuridagi mas'ullar tomonidan ko'rib chiqiladi. Vazirlik xodimlari palata mutasaddilari bilan hamkorlikda o'tkazayotgan profilaktik tadbirlarda advokatning kasb etikasi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish yuzasidan qat'iy ko'rsatmalar berib borilmoqda.

Yuridik xizmat juda serqirra, murakkab, ba'zi masalalarga yechim topishda qonunchilik hujjatlarini chuqur o'rganish kerak. Har qanday holatda ham advokat kasb etikasi qoidalariga sodiq qolishi shart. 2023-yilda ba'zi advokatlarning o'z kasbini suisite'mol qilish holatlari aniqlanib, 70 nafarining litsenziyasi to'xtatib qo'yilgan bo'lsa, 143 nafarining litsenziyasi tugatildi. Jabrlangan fuqaroni himoya qilish o'miga o'z manfaati yo'lida uni aldab, tuzog'iga ilintirish payida bo'layotgan advokat bu sohada ishlashga haqqi yo'q. Advokatlik faoliyatining yuksak standartlarini ta'minlash bo'yicha hududiy boshqarmalar huzurida etika komissiyasi ishlamoqda. Fuqarolarga namunali yuridik xizmat ko'rsatib kelayotgan xodimlarni rag'batlantirish maqsadida joriy yildan boshlab "Advokatura sohasiga qo'shgan hisssasi uchun" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

KADR TAQCHILLIGIGA YECHIM BOR

Qaysi sohada mutaxassis ko'p bo'lsa, o'sha tarmoqda raqobat muhiti yuzaga keladi, yangilanish jarayoni kechadi, dunyo bozoriga yo'l ochiladi. Yurtimizda oliy o'quv yurtlari soni sezilarli oshdi. Shunga mos ravishda ayrim sohalarda kadrlar ko'pligi kuzatilayotgan bo'lsa, ba'zi tarmoqlarda hali mutaxassis yetishmaydi. Bu holat aynan advokatura yo'nalishida ham kuzatilmoqda. Advokatlarning asosiy qismi 50 yoshdan oshgan bo'lib, shunga yosh kadrlarni ko'proq jalb qilishni davrning o'zi taqozo etayotir. Muammoga yechim topish mumkinmi?

— Albatta, buning imkoni bor, — deydi Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori Alibek Matmurotov. — Yurisprudensiya yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari tomonidan zamonaviy talablar, ilg'or xalqaro yuridik tajriba va mehnat bozori ehtiyojlari asosida yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, halol kadrlar sud, prokuratura, ichki ishlar va qisman advokatura sohasi uchun tayyorlab berilmoqda. Talabalar bilan muloqot shuni ko'rsatadiki, ular huquqni muhofaza qiluvchi organlarga emas, balki advokatura institutida ishlashga qiziqish bildirsa boshladi. Ularining ushbu institutga ishonchini oshirish maqsadiga qator istiqbolli vazifalar belgilangan.

Xususan, "Advokatura" moduli doirasida o'tilayotgan darslarga sohani mukammal egallagan, o'z imigiga ega mutaxassislar keng jalb qilinmoqda. Bu esa talabalarning ushbu institutga qiziqishi ortishiga zamin yaratishi tabiiy. Kredit-modul tizimi asosida ta'lim olayotgan talabalar uchun "Advokatura" majburiy fan bo'lib, u jinoiy odil sudlov fakulteti uchunchi bosqichida ta'lim olayotgan 430 ga yaqin bo'lg'usi mutaxassisga o'qitil-yapti. 2020-yildan boshlab advokatura instituti nazariy asoslarini chuqur o'rganish uchun universitetdagi muvofiq, muvofiq qoidalarini qabul qiluvchi organlar va advokatura kafedrasida, 2020-2021-o'quv yilidan boshlab magistratura bosqichida advokatlik faoliyati mutaxassisligi ochildi, har yili 21 bakalavr qabul qilinishi katta qadam bo'ldi. Qolaversa, advokatlar klubida talabalar advokatlik kasbiga oid bilim va ko'nikmalarni egallashi mumkin.

2023-yil 9-avgustga qadar yosh mutaxassis advokatura sohasida ishlash olmas, undan huquqshunoslik yo'nalishida ikki yillik ish staji talab etiladi. Advokaturaga yosh kadrlarni ko'proq jalb qilish uchun bu talab bekor qilindi. Yana bir imkoniyat Prezidentimizning 2023-yil 8-maydagi "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan yaratildi. 2023-yil 1-sentabrdan boshlab oliy ta'lim muassasasi yurisprudensiya yo'nalishi talabalariga advokatlik tuzilmasida mehnat qonunchiligiga muvofiq o'qishdan bo'sh vaqtda ishlash huquqi berildi. Bu yosh huquqshunosning iqtisodiy holatini yaxshilash va advokatlik tizimiga zaxira kadr tayyorlash uchun yaxshi imkoniyat yaratmoqda.

QONUN DOIRASIDA ISHLAGANGA NIMA YETSIN?

Advokat chigal masalalarga duch keladi, kalavaning uchini topish uchun oylab izlanadi, taqdim etilgan hujjatlarni o'rganadi, "ish" bilan bog'liq idoralarga qatnaydi. Mushkuli oson bo'lishidan umidvor shaxsga amaldagi qonunchilik normalari asosida huquqiy yordam ko'rsatuvchi advokatning eshigidan odam arimaydi. Qonun doirasida halol, vijdonan ishlagan kadrning yuzi hamisha yorug', obro'si baland, xizmati e'tirofga loyiq.

— Og'ir vaziyatga tushgan fuqaroning shikoyatini tinglab, hujjatlarini sinchiklab o'rganamiz, — deydi Buxoro shahridagi advokatlik byurosi rahbari Zafar Toirov. — Advokatga ishonch bildiruvchi va himoya ostidagi shaxsning huquq, erkinlik va manfaatlarini yuzaga chiqarishga yordam beradigan qonuniy vosita, usul va usulbar mavjud. Avvalo, Konstitutsiya, kodeks, qonun va turli qonunosti hujjatlarga murojaat qilamiz. Faoliyatimiz davomida turli jinoyat ishlarni dastlab tuman/shahar, viloyat, qolaversa, Oliy sud bosqichlarida ko'rib chiqib, yakuniga yetkazamiz. 2017-yildan joriy yilga qadar nohaq ayblangan 186 shaxsga doir jinoyat ishlarni tugatib, og'lov hukmi chiqarishga erishdik.

Ha, advokatlar hayotda haq-huquqlari toptalgan, ruhan va jismonan ezilgan, nohaqlik girdobiga tushib qolgan insonlar manfaati uchun kurashishi, uni yorug'likka olib chiqishi zarur. Zero, o'z kasbi, sha'niga munosib advokat shundagina o'z qadr-qimmatini topib, e'tirof etiladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

Ta‘minot zanjirini boshqarish muhimligi kundalik ishlarimizda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Aslida, bajargan har bir ishimiz, kunlik rejalарimiz logistika, sotib olish va rejalashtirish kabi ta‘minot zanjiri funksiyalarini o‘z ichiga oladi. Tarixdagi eng muhim qulaylik va o‘zgarishlarga ta‘minot tizimida faoliyat yuritgan insonlar ham katta hissa qo‘shgan. Buni Genri Ford, Sam Valtон, Stiv Jobs hamda Jeff Bezos kabilari faoliyatida yaqqol ko‘rish mumkin. Ular nafaqat mashinasozlik, balki yirik chakana savdo, texnologiya va elektron tijorat sohalari, shuningdek, ta‘minot zanjirini boshqarishning haqiqiy ustalari edi. Shu bois, bu shaxslar biznesga oid adabiyotlarda ta‘minot zanjirini boshqarish yo‘nalishi namoyandalari sifatida e‘tirof etiladi.



Xorijdagi vatandosh

TA‘MINOT ZANJIRI BOSHQARUVI

yurtimiz uchun istiqbolli soha

asosiy vazifalaringiz nimalardan iborat bo‘lgani hamda o‘rtirgan tajribangiz bilan o‘rtoqlashsangiz.

Faoliyatimiz davomida turli vazifalarni bajarish, har xil insonlar bilan muloqot qilish talab etiladi. Professional o‘shish davomida odamning funksional mas‘uliyati ham kengaya boradi. Masalan, “O‘zsanoateksport” AJdagi xalqaro ta‘minot tizimi bo‘yicha faoliyatimda xorijlik hamkorlar bilan ishlash, O‘zbekiston bozoridagi yetkazib beruvchilar bilan hamkorlik qilish, eksport haqida bilim berish hamda xalqaro ta‘minot standartlariga moslashtirish zarur edi. Bundan tashqari, yuridik, logistik, sifat va kontrakt masalalari, kichik, o‘rta va yirik tadbirkorlarning eksport amaliyotini yo‘lga qo‘yish vazifalari ham mas‘uliyatim doirasiga kirardi.

Keyingi bosqichlarda esa avtomobilsozlik sohasiga e‘tibor qaratdim. Shuningdek, noldan boshlanadigan turli loyihalarda faoliyat yuritdim. Ular ham men uchun katta tajriba maktabi bo‘ldi. Dastlab fransuz konserni Peugeot Citroen bilan O‘zbekiston hududida zavod qurishga muvaffaq bo‘ldik. Bu loyihada ichki bozorni rivojlantirish, infratuzilma yaratish, mahsulotni mintaqalarga talablariga moslashtirish, yuridik masalalarni hal etish, talabni prognoz qilish, biznes-rejalarni ishlab chiqishda ishtirok etish hamda ta‘minot tizimidagi xavflarni boshqarish kabi vazifalar zimmandagi edi.

Bu yerda o‘rtirgan tajribam meni Volkswagen loyihasiga yetakladi. Mazkur kompaniyada faoliyatim boshlanishi pandemiya bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelgani sababli avvaliga birmuncha qiyin bo‘ldi. Biroq jamoa bilan birga kompaniyaning ta‘minot biznesini rivojlantirganimiz va dilerlarimiz sonini oshirganimiz sari ishchilar nufusi ko‘payib bordi.

Kompaniyada, asosan, nemis, rus va mahalliy hamkorlar bilan birga ta‘minotimiz va biznes rivoji uchun birdamlikni ta‘minlash, ichki ehtiyojlarga ko‘ra mahsulotlarni muvozanatlash, ko‘paytirish, sotib olish va rejalashtirish bilan shug‘ullandim.

Oradan bir oz vaqt o‘tib, o‘zimizni xorijda sinab ko‘rishga qaror qildim hamda harakat boshladim. AQSHda ta‘minot zanjiri boshqaruvi sohasida nufuzlilardan biri bo‘lgan Viskonsin-Madison

universiteti menga eng ma‘qul tanlov bo‘ldi. Barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o‘tib, ushbu nufuzli universitet grantini yutib oldim. Buni qarag‘ngi, bir vaqtning o‘zida “El-yurt umidi” jamg‘armasi stipendiyasi sohibi ham bo‘ldim.

Bu OTMda o‘qish davomida dunyo bo‘ylab ta‘minot zanjiri boshqaruvi reytingida yuqori o‘rindaturuvchi Schneider Electric kompaniyasida logistika muhandislik yo‘nalishida amaliyot o‘tadim. Ikkinchi kursdan boshlab esa xalqaro biznes bo‘yicha professorga yordamchi bo‘lib, seminarlarda o‘rgangan bilimimni tengdoshlarim bilan baham ko‘rdim. Shunday qilib, ta‘minot zanjiri sohasi so‘nggi to‘qqiz yilda hayotimning bir qismiga aylanib qoldi.

— Aynan sizning sohangizga qiziquvchi

— Menimcha, buning bir nechta sababi bor. Avvalo, ta‘minot zanjiri boshqaruvi O‘zbekistonda nisbatan yangi soha bo‘lib, unga o‘qitish tizimining o‘zidayoq mutaxassislar tanqisligi uchraydi. Shu bois, OTMlarda bu boradagi ta‘lim dasturlari hali keng rivojlanmagan.

Shuningdek, ta‘lim dasturlari va kurslar cheklangani ham sabablardan biri. Maxsus o‘quv kurslari va sertifikatlashtirish turlari yetarli bo‘lmagani, mavjud dasturlarning esa xalqaro talab va standartlarga to‘liq mos emasligi mutaxassis tayyorlashda muammolar keltirib chiqarmoqda. Xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik imkoniyatlari kamligi va amaliyot o‘tash uchun zarur resurslar yetishmasligi masalani yanada chuqurlashtiradi.

— Tajribangizdan kelib chiqib, mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirish borasida qanday tavsiyalariniz bor?



boshqaruvi sohasidagi huquqiy-me‘yoriy hujjatlarini shakllantirish, xalqaro standartlarga moslashtirish hamda biznes jarayonlarini yengillashtirish uchun zarur huquqiy islohotlarni amalga oshirish dardkor.

— Siz texnologiya mavzusiga to‘xtaladingiz. Endi ta‘minot tizimida qo‘llanadigan texnologiyalar va metodlar haqida batafsil ma‘lumot bersangiz.

Ta‘minot tizimidagi ish jarayonida ko‘plab zamonaviy texnologiya va metodlar tatbiq etiladi. Misol uchun, avtomobilsozlik sanoatida ERP tizimidan foydalaniladi. Bu tizim bizga real vaqt rejimida ma‘lumotlarni kuzatib borish va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatini beradi. Lekin so‘nggi yillarda avtosanoatda SAP ERP tizimiga o‘tish uchun sa‘y-harakatlar kuzatilyapti. O‘ylaymanki, yaqin kelajakda uning natijasini ko‘ramiz.

Avtosanoat ta‘minot tizimining yuqori bosqichida, ayniqsa, ishlab chiqarishda ta‘minot zanjirini optimallashtirish maqsadida lean management va six sigma metodlari ham keng qo‘llanadi. Shuningdek, 5S, Kanban va Kaizen kabi sifat boshqaruvi hamda ish samaradorligini oshirish metodlaridan unumli foydalaniladi. Bu metodlar jarayonlarni yaxshilash, isrofgarchilikni kamaytirish va yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

Qolaversa, Power BI yoki Tableau kabi ma‘lumotlar bilan ishlash tizimi ham qo‘llanib, u ma‘lumotlarni vizualizatsiya qilish hamda ta‘minot tizimidagi vaziyatni yanada aniq ko‘rish imkonini beradi.

— Ta‘minot zanjiri boshqaruvi sohasi bilan bog‘liq kelgusidagi reja va maqsadlaringiz qanday?

— Kelajakdagi reja va maqsadlarim global ta‘minot zanjirlarini ilg‘or texnologiya va

innovatsion yondashuvlar yordamida yangi darajaga olib chiqishga qaratilgan. Asosiy maqsadlarimdan yana biri — ta‘minot zanjirini boshqarish jarayonini to‘liq raqamlashtirish va avtomatlashtirish. Bu orqali har bir bosqichni real vaqt rejimida kuzatib borish, resurslarni samarali taqsimlash hamda ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga erishish mumkin. Raqamlashtirish jarayonida sun‘iy intellekt va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ta‘minot zanjiridagi xavflarni oldindan aniqlash va oldini olish imkoniyatini yaratmoqchiman.

Shuningdek, xalqaro kompaniyalar bilan hamkorlik va muloqotni kuchaytirish orqali yarimo‘tkazgichlar masalasida natijalarga erishish maqsadim bor. Sababi yarimo‘tkazgichlar sanoati global ta‘minot zanjirlarining muhim qismidir. Bu hamkorlik orqali yangi imkoniyatlarni o‘rganish, innovatsion yechimlarni tatbiq etish va global miqyosda raqobatbardoshlikni oshirish mumkin. Shuningdek, barqarorlik va ekologik mas‘uliyatni inobatga olib, sohada “yashil” texnologiyalarni joriy etish va uglerod izini kamaytirishga alohida e‘tibor qaratish ham kelgusidagi maqsadlarim qatoridan joy olgan.

Bundan tashqari, logistika infratuzilmasini rivojlantirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi texnologiyalarni tatbiq etish, avtomatlashtirilgan omborxona tizimlari, robotlashtirilgan transport vositalari va dronlar yordamida yetkazib berish jarayonini tezlashtirish hamda samaradorligini oshirish kabi tashabbuslarni ham o‘z ichun kelgusida zabt etishim zarur marra deb bilaman.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Jonibek ALIJONOV suhbatlashdi.



Zamon bilan hamnafas

OLIIY TA‘LIM TIZIMIDA
TURIZM RIVOJI

NAZARIY VA ILMIY YONDASHUV SAMARASI

Fazliddin MO‘MINOV,

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi boshqarishi boshlig‘i

Bugun hayotimizning barcha jabhasiga shiddat bilan kirib kelayotgan turizm islohotlari yaqin yillarda o‘zining mustahkam ildizlariga, qonuniy asoslarga ega bo‘ladi. Sayyohlik mamlakat taraqqiyotiga sezilarli hissa qo‘shibgina qolmay, aholining, yoshlarning dunyoqarashi, hayotga munosabati, turmush tarziga ham ijobiy ta‘sir o‘tkazdi.

Aynan hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va mamlakatda xorijlik sayyohlar oqimini ko‘paytirish davlatimizning doimiy e‘tiborida ekanini qayd etish zarur. Yaqinda shu mavzuda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda ham davlatimiz rahbari tadbirkorlarning taklif va muammolarini tingladi. Shuningdek, tizimdagi kamchiliklarni chuqur o‘rgangan holda maqbul yechimlar yo‘lini aniq belgilab berdi. Bunda turizm sohasi vakillari uchun berilayotgan bir qancha moliyaviy va soliq imtiyozlari qatorida har yili kamida 20 nafar o‘rta bo‘g‘in menejerini xorijda qisqa muddatli malaka oshirishga yuborish, yangi o‘quv yilidan turizm sohasidagi oliyog‘h va texnikumlarda dual ta‘limni joriy qilish vazifalari kun tartibiga qo‘yilgani yoshlar hamda soha vakillari uchun muhim ahamiyatga ega yangilik bo‘ldi.

Chunki aksariyat yoshlar hozir mazkur o‘rta bo‘g‘in kadrlaridan iborat bo‘lib, xizmat ko‘rsatish sohasida ularning o‘rni, mehnat ulushi yuqori.

Bu puxta o‘ylangan vazifa ijrosi amaliyotga joriy etilar ekan, dual ta‘lim tizimi iqtisodiyotida o‘z samarasini ko‘rsatgan Germaniya, Avstriya, Shveysariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlar singari natijalarga erishishimiz mumkinligi ham ayni haqiqat.

Mamlakatimizda soha rivojiga yo‘naltirilgan qator me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Xalqaro va mahalliy tadbirlar keng ko‘lamda tashkil etila boshladi, sohaga ixtisoslashtirilgan yangi ta‘lim muassasalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Sayyohlar oqimining oshishi, yangi turizm mahsulotlari ishlab chiqarilishi, yangicha yo‘nalishlar rivojlantirilishi, infratuzilmani takomillashtirishga oid sa‘y-harakatlar, xorijiy investorlar oqimi, omamaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoq vakillarining tashrif kabi yangilanishlar yurtimizning nufuzli xalqaro reytinglarda turizm uchun eng munosib mamlakat sifatida yuqori o‘rinlarga ko‘tarilishiga zamin yaratdi.



Bu mamlakatimizning sayyohlik borasidagi jozibasini oshirishda bir yo‘nalish, xolos. Hali ochilmagan imkoniyatlar cheksiz. Chegara hududlarda, olis tumanlarda ekologik, ziyorat, arxeologik, gastronomik, tarixiy-madaniy turizmning kashf etilmagan qirralari mavjud. Birgina qadimiy Mizdaxkan majmuasiga miloddan avvalgi IV-III asrlarda asos solingan, Forish tumanidagi Uxumsoy petrogliflari, Urgutdagi



IX asrga oid Nestorian cherkovi qoldiqlari kabi yodgorliklar fikrimiz dalilidir.

Prezidentimizning 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, amaliyotda ilmiy yondashuvni oshirish, nazariya bilan amaliyot integratsiyasini yo‘lga qo‘yish maqsadida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 11 ta oliy ta‘lim muassasasi hamda hududlardagi 30 ta tuman hokimligi hamkorligida sayyohlik va xizmat ko‘rsatish sohalarni rivojlantirish, yangi turizm kontentlarini yaratishga qaratilgan “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilib, tegishli vazifalar bajarilmoqda.

Jumladan, o‘tgan davrda tuman, shaharlar turizm salohiyati, hudud va tarix to‘g‘risida xorijiy tillarda jami 1319 ta, jumladan, 457 ta axborot, 288 ta video hamda 574 ta foto kontentlar yaratildi. Shuningdek, O‘zbekiston Milliy universitetiga birlashtirilgan tumanlar bo‘yicha “O‘lkashunoslik” ilmiy-omambop to‘plamlari chop etildi hamda 8

ta obyekt bo‘yicha kontentlar xalqaro vikipediya saytiga joylashtirildi.

Singapur menejmentni rivojlantirish instituti tomonidan Bo‘stonliq, Parkent, Ohangaron tumanlari hamda Angren shahrining turizm va mehmondo‘stlik sohasiga oid ma‘lumotlari qamrab olingan yagona elektron platforma — tourism.mdis.uz veb-sayti yaratildi va tumanlarning turizm imkoniyatini aks ettirgan logotip ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filialida 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab turizm ixtisosligi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tomonidan Qoraqalpog‘istonning Taxtako‘pir, Xo‘jayli, Ellikqal‘a tumanlarida faoliyat yurituvchi gid-tarjimon va ekskursiya yetakchilari uchun mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi.

Oliyog‘hlar birlashtirilgan hududlarda 2,5 mingga yaqin talaba ishtirokida soha vakillari uchun 18 ta qisqa muddatli kurs va turistik obyektlarda 38 amaliyot dasturi amalga oshirildi. Xususan, Toshkent viloyatining Angren shahri,

Bo‘stonliq, Ohangaron, Parkent tumanlarida joylashgan mehmonxona, umumiy oqatlanish joylari va dam olish maskanlarida o‘rta bo‘g‘in kadrlarini qayta tayyorlash bo‘yicha seminarlar tashkil etilib, 300 yig‘it-qizga sertifikat berildi.

Oliyog‘hlar tomonidan hozirgacha 18 ta ilmiy anjuman va forumlar, 8 ta xalqaro ilmiy konferensiya, 6 ta etnofestival, 7 ta yozgi va qishki lager hamda 32 ta seminar-trening tashkil etildi. Hozirga qadar ushbu tadbirlar natijasida tumanlarga 8 mingdan ziyod xorijlik va 147 mingga yaqin mahalliy sayyoh jalb qilindi.

Ushbu tadbirlarning turli xalqaro tashkilotlar, xorijiy oliy ta‘lim muassasalari va hamkor tashkilotlar bilan birga tashkil etilgani alohida ahamiyatga ega. Birgina joriy yilning 17-18-may kunlari Qoraqalpog‘istonning Xo‘jayli tumanida o‘tkazilgan yoshlar festivali amaldagi ishlarining yaqqol ifodasidir.

OTMlar professor o‘qituvchilari, tadqiqotchilari va iqtidorli talabalar tomonidan sayyohlikni rivojlantirish maqsadida 13 ta ilmiy tadqiqot ishi boshlandi. “Taxtako‘pir, Xo‘jayli va Ellikqal‘a tumanlari turizm sektorini kengaytirish xususiyatlarini tadqiq qilish”, “Rishton, Chust, Yangiqo‘rg‘on va Boysun tumanlari turistik salohiyatini oshirish” hamda “Nogironligi bor shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasini oshirish” loyihallari shular jumlasidan.

Yurtimizda turizm gullab-yashnashi uchun imkoniyat ham, salohiyat ham ancha yuqori. Bu resurslardan oqilona foydalanish, to‘laqonli ishlata bilish, yangi manbalar ilmini yaratish va ertaga natijasidan bahramand bo‘lish o‘z qo‘limizda. O‘zbekiston kabi rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatlar uchun yurtimizda professional ta‘lim, magistratura va doktorantura bosqichlarida xorijlik yoshlar uchun xalqaro grantlarning ko‘proq ajratilishi, bu jarayonda ularning oillarati tashrif, yashashi uchun alohida imtiyozlar berilishi, stipendiya dasturlari ko‘paytirilishi, yozgi xalqaro oromgohlar, festivallar va yosh olimlar forumlari tashkil etilishi sayyohlar oqimining yanada o‘rtishiga xizmat qilishi mumkin.

Turizm sohasini takomillashtirish borasida o‘zining ilg‘or tajriba va innovatsion yondashuvlari, yangicha nazariy va ilmiy qarashlari bilan maydonga chiqayotgan oliy ta‘lim tizimi barcha islohotlarda hamisha xalqimizga yelkadosh bo‘ladi.

Yangi O'zbekiston — iste'dodli yoshlar mamlakati

ZOMIN SEMINARI: Ijodkorlik ruhi UMUMMILLIY HARAKATGA AYLANISHI KERAK

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Dunyo, insoniyatning ma'naviy qiyofasi, odamzodning yashash haqiqati ham o'zgarib boryapti. Bunday vaziyatda mamlakatlar zamon bilan hamnafas bo'lish barobarida o'zligini saqlab qolishdek murakkab jarayon bilan yuzlashmoqda. Shunday pallada faqat bilimli, mustaqil fikrli yoshlar davlatni yuksaltira oladi. Ammo shunday mamlakatlar ham borki, o'g'il-qizlari ilm olish u yoqda tursin, to'yib ovqatlanish, daydi o'qqa duch kelmaslik qayg'usi bilan yashayapti. Taraqqiy etgan aksar davlatlar yoshlari esa faqat mo'may pul topishga xizmat qiladigan ilmlarni o'rganish bilan band. Shunday turfa xillik ichra mamlakatimizda chin ziyoli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan ishlar bajarilmoqda. Fikrimizni an'anaviy Zomin seminari isbotlaydi. Joriy yilda ham Zomining yuzga yaqin iste'dodli yigit-qiz jamlandi. Ular ustoz ijodkorlardan adabiyot, hayot saboqlarini oldi.



Zomin seminari yuragi so'z taftidan lovillab turgan yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish uchun muhim maydon, ta'bir joiz bo'lsa, maktabdir. Adabiyot birlashtirgan yoshlarda do'stona munosabat shakllanadi. Ularning yaxlit kuch bo'lib odimlashi, maqsadlarini to'g'ri yo'naltirishiga ko'mak beradi.

Ammo hayot tashvishlari doim ham markazga kelib, ustoz ijodkorlar subhatini olishga imkon bermaydi. Oqibatda yoshlarning iqtidori tirikchilik atalmish og'ir karvon yo'lida nest-nobud bo'lishi mumkin. So'ng kelajakka ishonchi yo'qolib, dunyoning mayda tashvishlariga o'ralashib qoladi. Birgina ishonchning yo'qolishi insonning hayot yo'lini o'zgartirib yuboradi. Zomin seminari yuragi so'z taftidan lovillab turgan yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarish uchun muhim maydon, ta'bir joiz bo'lsa, maktabdir. Adabiyot birlashtirgan yoshlarda do'stona munosabat shakllanadi. Ularning yaxlit kuch bo'lib odimlashi, maqsadlarini to'g'ri yo'naltirishiga

ham kerak. Bular bir qaraganda havoyi gapga o'xshaydi, ammo zamirida asrlar sinovidan o'tgan haqiqat bor.

Birgina jadidlar harakatiga nazar solaylik. Ular asiy orzuga aylangan ozodlik yo'lida so'z vositasida jang qilmadimi? Usmon Nosir olis Sibirda vatan yodi bilan yashamadimi? Fitrat millatning ongu tafakkurini o'zgartirish yo'lida qurbon bo'lmadimi? Cho'lpon va Qodiriy o'z asarlari orqali xalqqa ko'zgu tutib, ozodlikka, ma'rifatga olg'a boshlamadimi?

Ularning barchasi jisman mahv etildi, biroq ezgu maqsadlari, teran qarashlari avlodlar ruhida jonlandi. Ular ilgari surgan g'oyalar jamiyatni

izlanishlarigiz, yangiliklaringiz bilan belgilaydigan va O'zbekistonda jahonga olib chiqadigan yoshlarsiz. Shu bois, sizning hayot va ijod yo'lingizga beparvo munosabatda bo'lmasligimiz kerak".

Prezidentimiz bugungi yoshlar qiyofasida kelajakni ko'rayotgani bejiz emas. Ularga munosib shart-sharoit yaratib berish ortidan farovon kelajakka zamin hozirlanmoqda.

Bugungi adabiyotning bosh g'oyasi milliy g'urur bo'lishi kerak. Hozir oramizda ichki bir yovqarash his bilan barcha holatdan salbiy ma'no izlaydigan, o'zi yashab turgan jamiyatdan, millatdan tonadigan ayrim toifa bor. To'g'ri, bunday qatlam barcha jamiyatda doim bo'lgan, bo'ladi ham. Ammo gap ularning qanchaligida. Ha, gohida miqdor ham sifatni belgilaydi.

Qanday odam o'zi tug'ilib o'sgan zaminga, ulg'aytirgan xalqqa tosh otishi, ona tiliga befarq bo'lishi, tarixidan tonishi mumkin? Faqat milliy g'ururdan ayro kishi shunday qila oladi. Erkin Vohidov "Bu olamda yo'qotishlar ichidagi eng og'ir yo'qotish insonning o'zligini yo'qotishidir. Odamzod tafakkur va ehtiros, ruhiyat va imon dunyosida yashaydi. U yuragidagi o'tiqd bilan, ishonch bilan tirik va butun. O'zlikni yo'qotmoq ana shu olamdan judo bo'lmog'dir, inson imoratidagi ruhlarning — ustunlarning sinmog'idir", degan edi.

Bu qarash ortidan bugun adabiyot maydoniga kirib kelayotgan, o'zini ziyoli hisoblagan, shu vatanning farzandiman, unga xizmat qilaman, degan ijodkorlar yelkasida ulkan mas'uliyat borligi oydinlashadi.

Iste'dod — ilohiy ne'mat. Ijodkor qog'ozga bitgan so'zlar esa umumning manfaatini o'zida mujassam qilishi lozim. Ya'ni har bir asarda vatan va millat ruhi kezib yurishi zarur. Shu bilan birga, bobolarimizdan o'tib kelayotgan yaratuvchanlik qobiliyati bo'y ko'rsatib turishi kerak.

O'zbek xalqi — bunyodkor xalq. Ajdodlarimiz insoniyatni maftun etgan qadimiy shaharlar bilan birga ma'naviy olam qurilishida ham birdek mahorat ko'rsatgan. Yaqinda Zominda bo'lib o'tgan II Xalqaro maqom san'ati anjumani ochilish marosimida ISESCO Bosh direktori Salim Muhammad al-Malik boy tariximiz, millatimiz buyukligi haqida munosib fikrlar bildirdi. O'zbek xalqi o'zligini mustahkam saqlab kelayotgani, tomirida hayotiy qudratga ega ajdodlar qoni oqayotgani haqida so'zladi. Millatimizning qudrati xususida to'xtalib, ajdodlarimiz dunyo tamadduniga xizmat qilgan eng muhim ilmlarni, kashfiyotlarni insoniyatga tuhfa etganini alohida minnatdorlik bilan ta'kidladi.

Davlatchiligimiz tarixidagi yuksalish pallalari adabiyot va ma'naviyatga e'tibor ortidan vujudga kelgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ma'naviyat va ma'rifat insonga aqliy, ruhiy quvvat baxsh etadi. Kishilarni jaholat chalgandalan qutqaradi, buzuq, yomon, gunoh ishlardan qaytaradi, ezgu xulq va odob egasi bo'lishga ko'maklashadi. Faqat chinakam ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligiga erishgan odam inson qadri, millat qadriyatlarini, o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatning

jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashib yashashi mumkin. Shu sababga ko'ra, ma'rifatli kishilardan iborat jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi.

Sohibqiron Amir Temur zamonasida xalqimiz ma'naviyat va ma'rifat borasida jahonda dong taratgani bejiz emas. Ma'naviyatni hayotga singdirish faqat ta'lim orqaligina emas, balki ma'rifat o'choqlarini shakllantirish ortidan ro'yobga chiqadi. Zomin seminari ham shunday maqsadlarni ko'zlab tashkil etilgan. Bu ezgu ish bugun ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligini ta'minlashga hissa bo'lib qo'shilyotir. Xalq ma'naviyati va ma'rifatining yuksalishiga imkon berayotir. Bu yo'lida har kim iqtidori, iste'dodi, qobiliyati, intilishiga yarasha muayyan darajaga erishadi.

Zomin seminari o'tkazila boshlagandan beri xalqimiz juda ko'plab yosh ijodkorlarni kashf etdi. Bugun ular turli jabhalarda o'z so'zi va ijodi bilan millatning asiy orzu-intilishlarini qalamga olib, farovon yurt xizmatida kamarbasta bo'lmoqda.

Ma'rifat tarqatish bilan siyosat va iqtisodiyot sohalarida umumijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga erishish ma'naviyat ahlining mas'uliyati, har bir ziyolining vijdon ishidir.

Bugun o'z azmu shijoati va o'tkir qalami bilan katta maydonlarni zabt etishga chog'langan o'g'il-qizlarga yaratilayotgan sharoitlar umumbashariyatda millat qiyofasini saqlab qolish, yoshlarga an'ana va qadriyatlarini singdirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Abdulla Avloniy "Ma'rifatli xalq shijoatli bo'lur. Shijoat qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan iboratdir. Maorifdan, fundandan va madaniyatdan mahrum bo'lgan xalq jaholat panjalarining orasida xamir kabi ezilganidek, a'oli zamirida ham o'z nafsining yoqasini bo'shata olmas... Zeroki, jaholat va qo'rqinch faqirlik va muhtojlikdan ziyoda dahshatli bir musibatdir", degan edi.

Ijodkorlik ruhi umummilliy harakatga aylanishi kerak. Dunyoda olomon madaniyati piramidalarini shakllanmoqda. Millat, irq va dinlar chegarasi zaiflashib, milliy va umuminsoniy tushunchalarin o'ziga aylantirib boryapti. Ma'rifatsiz toifalarning insoniyat tomonidan bugungacha yaratilgan obidalar, qadriyatlarini oyoqosti qilishga urinishi avj olayotgan davrda yashayapmiz. Bunday murakkab pallada tashqi ta'sirlarga qarshi yakdil birlashish umummilliy harakatning asosidir.

Har bir millatning kelajakka da'vosi bo'ladi. Bu da'vo umummilliy harakatga aylanadi. Milliy da'vo nima? Bu asrlar davomida to'yingan qadriyatlarini asrab-avaylash, e'tiqod va din sobitligi, istiqloq himoyasi yo'lida kurashga shay avlodlarni kamolga yetkazish, ma'rifiy yuksak, iqtisodiyoti barqaror, nazari to'q xalq sifatida shakllanishidir. Bu yo'lida ijodkor yoshlar qo'shanot bo'lishi shubhasiz.

Zomin seminarida qatnashgan o'g'il-qizlar nafaqat o'zbek, balki jahon yoshlariga ham o'z dunyoqarashi, sobitligi, vatanparvarligi, an'ana va qadriyatlariga sodiqligi bilan o'rnatilgan kerak. Bugungi Zomin ruhi Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishga olam-jahon hissa qo'shmoqda.



Hech shubhasiz, kelajakning ma'naviy qiyofasini yosh avlod ruhini o'zlik bilan to'yintirish orqali shakllantirish mumkin. Quvonarlisi, yangi O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyot ma'naviy yuksalish bilan birga olib borilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir".

Fan o'suvchi tog'lar borligini isbotlagan. Iste'dod ham shunday tog'larga o'xshaydi. U ko'z oldingizda asta-sekin o'sib boradi. Adabiyotshunos olim, mohir tarjimon, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov ta'bir bilan aytganda, shu tarzda o'zini o'zi yaratadi. Ha, dunyodagi eng sharafli va mashaqqatli yumush insonning o'zini shakllantirishidir. Zomin seminari timsolidagi ijtimoiy-siyosiy va adabiy jarayonlar yangi O'zbekiston bunyodkorlarini kamol topitirishga qaratilgani bilan ahamiyatli. Tog' o'sishi uchun yerdan, inson esa ajdodlar zakosidan quvvat oladi. Zomin seminarlarida xalqimizning chin ziyolilari

farzandlarni bashariyatga taqdim etgan. Bugun shunday alloma bobolarimiz qoldirgan merosga munosib avlodni tarbiyalash kun tartibidagi masaladir. Keyingi yillarda mamlakatimizning xalqaro maydondagi hamkorlik, do'stona munosabatlari, ilgari surayotgan tashabbuslari samara bermoqda. Dunyo ahlini ezgulikka chorlash bilan birga jamiyatimizning hozirgi davrga mos yangicha qiyofasi shakllanyapti.

Ha, yangi O'zbekiston bugun jahonga barqarorlik, gumanizm — insonparvarlik g'oyalarini singdirmoqda. Mamlakatimiz ilgari surayotgan tashabbuslar ko'llab-quvvatlanayotganining siri ham shunda. Mazkur o'zgarish va islohotlarda chorak asrlik an'anaga ega Zomin seminari ishtirokchilarining o'z o'imi va ovozi bor.



yoshlarga ana shu quvvatni ajdodlardan o'tib kelayotgan qadriyat va tushunchalar orqali bermoqda.

Xalqimiz azaldan boy tarixga ega, asrlar davomida dunyo tamadduni beshigini tebratib kelgan, tabobat, aniq va ijtimoiy fanlar, umuman, barcha bilimlarning eng yetuk sohiblari bo'lgan

Mamlakatning markazdan olis va chekka hududida voyaga yetgan bo'lsa-da, adabiyotga xizmat qilish, uni o'z taqdiri deb bilishni ko'ngliga tukkan, ulkan maqsadlarni ko'zlagan yoshlar yurtimizda kam emas. Ba'zi yigit-qizlar poytaxt adabiy muhitiga, bu yerdagi taniqli us-tozlardan saboq olishga ishtiyoqmand bo'ladi.



ko'mak beradi.

Seminarda ishtirok etgan adabiyotshunos olim, O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov

"Bugun siz yozayotgan asarlarni hozirgi kunimizning afsonasi aks ettirayotgan, xalqimizning intilishlari, izlanishlari, ruhoniy, ma'naviy dunyosini ko'rsatib berayotgan va kelajakning najotkor estetikasi, go'zalligini ifodalab berayotgan asarlar deb o'ylayman", deya yoshlar ijodiga munosib baho berdi.

Bu seminarining yana bir muhim jihati bor: unda qatnashgan yoshlarning hammasi ijodkor bo'lmagisi mumkin, ammo ong-u tafakkuri milliy, vatanparvarlik hissi bilan oziqlanadi. Aslida, adabiyot hayotni anglash, o'tib borayotgan har bir lahzaga to'g'ri va xolis baho berishdir.

Aksariyat yoshlar ijod bilan havasmandlikning farqiga hali yetgani yo'q. Avvalo, she'riyat, dramaturgiya, nasr kabi yo'nalishlarda qalam tebrata boshlaganlar o'zlari da'vo qilayotgan manzillarni aniq belgilab olishi kerak. Adabiyot shamol tegirmonini zabt etish emas. U so'z orqali jangohlarda qon kechishi mumkin. Kerak bo'lgan damda xalqni ozodlik yo'lida jipslashtirish, jaholatga qarshi kurashga undaydigan mayoq vazifasini o'tay olishi

birlashtirmoqda. Qisqasi, adabiyotga fidolikni bug'doyzorni chug'urchiqdan qo'rib o'tirishga qiyoslab bo'lmaydi. Bu yo'l, kerak bo'lsa, xalq manfaatini uchun qurbon bo'lishga undaydi. Shunda o'z-o'zidan savol tug'iladi: bugungi adabiyot nimaga xizmat qilishi kerak?

Keyingi yillarda dunyoning turli nuqtalarida urush alangasi avj olib, davlatlar o'rtasidagi ishonch tobora zaiflashib bormoqda. Insoniyat dunyo tashvishlari tegrasida moddiyat zanjiri bilan chirmab tashlangan bir pallada yashayapmiz. Shunday vaziyatda adabiyotning eng birinchi vazifasi milliy ruhni ko'tarishga xizmat qilish bo'lmog'i zarur.

Bugun jahonning turli joylarida minglab o'zbeklar istiqomat qilmoqda. Sizningcha, ularni vatan bilan nima bog'lab turibdi? Shubhasiz, milliylikka to'yinagan ruhiyat. Jismni o'zgartirish, tilni unutish mumkin, biroq insonning ruhoniy olami baribir vatani, u bilan bog'liq xotiralaridan oziqlanib yashaydi.

Mana shu milliy ruhning asosini, albatta, adabiyot va yozuvchi-shoirlar barpo etadi. Bugun vatan manfaatini yo'lida kamarbasta bo'ladigan, eng avvalo, an'ana va qadriyatlariga sodiq yoshlarni tarbiyalashda ham adabiyot hal qiluvchi vazifani bajaradi.

Ibrohim G'afurovning seminar qatnashchilariga xitob qilib aytgan quyidagi fikri gapimizni mantiqan asoslaydi: "Siz kelajakning undaydigan mayoq vazifasini o'tay olishi

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 2311.
42368 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhirlari: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy